

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

«Himoyaga ruxsat etilsin»

Fakultet dekani _____ A.A.Haydarov

«_____» _____ 2018-y.

BITIRUVCHI KURS MAGISTRANTI
SAYLIYEVA ZARINA RAXMIDDINOVNAning

**«G`AZALNING MATNIY TAHLILI » ( "G`AROYIB US -SIG`AR"
DEVONI MISOLIDA)**

mavzusidagi

***5A 120101 – Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti) yo`nalishida magistr
akademik darajasini olish uchun yozgan***

(2017-2018- o`quv yili)

Ilmiy rahbar :

I.Haqqulov , f.f.doktori

Rasmiy hakamlar:

Sh.N .Ahmedova, f.f.d.professor

Sh.Sulaymonov, f.f.n,

Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo`limi boshlig`i

Buxoro – 2018

«Ma'qullayman» «Tasdiqlayman» ____

Ilmiy rahbar: f.f.doktori O'zbek adabiyoti

I.Haqqulov kafedrası mudiri Sh.N.Ahmedova

« » _____ 2018-y.

« » _____ 2018-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchi kurs magistranti Sayliyeva Zarina Raxmiddinovnaning «G'azalning matniy tahlili» ("G'aroyib us-sig'ar" devoni misolida) mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi ustida olib borishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqidailmiy rahbar xulosasi (imzo)	Magistrant (imzo)
Nazar iy faoliyat	1. Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to'plash, o'rganish	2017-yil, sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayinazaridan o'rganish	2017-yil, oktabr - dekabr		
	3. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	2018-yil, yanvar		
MD ustida ishlash	1. MD rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	2018-yil, fevral-mart		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash (yig'ilgan nazariya'lumotlarni ishgakiritish)	2018-yil, aprel-iyul		
	3. II bob paragraflari ustida ishlash (nazariya'lumotlarasosida ishning amaliy qismini shakllantirish)	2018-yil, avgust-noyabr		
	4. III bob paragraflari ustida ishlash (nazariya'lumotlarasosida ishning amaliy qismini shakllantirish)	2018-yil, dekabr -		
	5. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	2018-yil, mart		
	6. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	2018-yil, aprel		
	7. Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish			

MDni rasmiiy - lashtir ish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	2018- yil, may		
	MDni himoya qilish	2018- yil, iyun		

Bitiruvchi kurs magistranti :

Sayliyeva Zarina Raxmiddinovna

Ilmiy rahbar :

f.f.doktori, I.Haqqulov

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti

o`zbek adabiyoti kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan

KO`CHIRMA

Buxoro shahri

29-avgust, 2017-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha a`zolari va I bosqich magistrantlari hamda ularning ilmiy rahbarlari

K U N T A R T I B I

Magistrlik dissertatsiyalari mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda ilmiy rahbarlarni tayinlash.

Kafedra qaror qiladi:

5A 120101 –*Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti)*mutaxassisligi magistrantiSayliyeva Zarina Raxmiddinovnaning magistrlik dissertatsiyasi mavzusi «G`azalning matniy tahlili » ("G`aroyib us-sig`ar" devoni misolida) etib tasdiqlansin.

5A120101 – ***Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti)*** mutaxassisligi magistrantiSayliyeva Zarina Raxmiddinovnaning«G`azalning matniy tahlili » ("G`aroyib us- sig`ar" devoni misolida) magistrlik dissertatsiyasiga f.f.doktori **I.Haqqulov**ilmiyrahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

G.Y. Samandarova

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti

o`zbek adabiyoti kafedrasining 6-yig`ilishi bayonnomasidan

KO`CHIRMA

5 -may, 2018-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha

a`zolari

K U N T A R T I B I

5A120101 –*Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti)* yo`nalishi magistranti Sayliyeva Zarina Raxmiddinovnaning «G`azalning matniy tahlili » ( ”G`aroyib us- sig`ar” devoni misolida) **mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi muhokamasi**

Kafedra qaror qiladi:

1.5A 120101 – *Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti)* mutaxassisligi magistranti Sayliyeva Zarina Raxmiddinovnaning «G`azalning matniy tahlili » (”G`aroyib us sig`ar” devoni misolida) **mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi** «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

2. Mazkur magistrlik dissertatsiyasiga ichki taqrizchi etib kafedra f.f.doktori, professor Sh.N.Ahmedova hamda tashqi taqrizchi etib Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo`limi boshlig`i, filologiya fanlari nomzodi Sh.Sulaymonov tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

U.R.To`rayeva

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Qo`lyozma huquqida

UDK-392.2

BITIRUVCHI KURS MAGISTRANTI

SAYLIYEVA ZARINA RAXMIDDINOVNAning

**«G`AZALNING MATNIY TAHLILI » ( "G`AROYIB US -SIG`AR"
DEVONI MISOLIDA)**

mavzusidagi

*5A 120101 – adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti) yo`nalishida magistr
akademik darajasini olish uchun yozgan*

(2017-2018- o`quv yili)

ILMIY RAHBAR: I.HAQQULOV , filologiya fanlari doktori

Buxoro – 2018

Fakultet ilmiy kengashning 2018- yil _____ - iyun

bayonnomasi bilan tasdiqlangan

BuxDU filologiya fakulteti 5A 120101 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) mutaxassiligi magistranti Sayliyeva Zarining «**G'azalning matniy tahlili**» ("**G'aroyib us sig'ar**" devoni misolida) mavzusidagi magistrlik ishiga DAK

XULOSASI

No	Belgilangan me'yorlar			
1	MDning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 70 betdan kam bo'lmasligi kerak)	talabga javob beradi–10 ball	talabga qisman javob beradi–7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud–4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan–8 ball	grant loyihasi bo'yicha – 7 ball	BuxDU dasturi bo'yicha–6 ball yoki dolzarb muammolar bo'yicha–5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yeterli darajada asoslangan–5b.	yeterli asoslan-magan–3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to'liq aniq emas – 5 ball	aniq emas – 3 ball
5	MDda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi	to'la– 7 ball	qisman – 5 ball	yeterli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi – 8 ball	ilgari olingan – 6 ball	to'la ishonchli emas–3 ball

7	MDning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi:, ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo`q- 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to'la aniq emas – 6 ball	tanqidiy baholanmagan-4 ball
9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	referaktiv xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to'la foydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan – 6 ball	faqat darslik, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma va ma'lumotnomalardangina foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a'lo – 10 ball	yaxshi – 7 ball	qoniqarli – 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to'liq – 8 ball	o'rta – 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	MDningichki va tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a'lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
14	MDga qo'yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Har bir me'yor bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: prof. Shermatov A.

A'zolari: 1. dots.Haydarov A.A. (rais muovini)

2. prof.Ahmedova Sh.N. (a'zo)

3. dots.Eshonqulov H.P (a'zo)

4. dots.Davronova Sh.G`

5.Bozorova M-Buxoro TI litseyi o'qituvchisi

6.Beganjova D.- Buxoro sh. 13-maktab o'qituvchisi

Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti

O`zbek adabiyoti kafedrasida bajarilgan

Ilmiy rahbar:

(imzo)

(Ilmiy darajas va unvoni, Ism-sharifi)

Rasmiy opponent:

(imzo)

(Ilmiy darajas va unvoni, Ism-sharifi)

Kafedra mudiri:

(imzo)

(Ilmiy darajas va unvoni, Ism-sharifi)

Magistratura bo`limi boshlig`i: _____

(imzo)

(Ilmiy darajas va unvoni, Ism-sharifi)

Magistrant:

(imzo)

(Ilmiy darajas va unvoni, Ism-sharifi)

Reja:

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.

I Bob. MATN BILAN ISHLASH TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MASALALARI NAZARIY

I.1. Matn bilan ishlash texnologiyalari haqida

I.2 G'azallarning arab va lotincha yozuvidagi matni.

II Bob “G'AROYIB US-SIG'AR” DEVONIDAGI DASTLABKI 5 G'AZALNING UMUMIY TAVSIFI.

II.1. Vazn va ruknlarga ajratib berilgan matni.

II.2. G'azallarning zohiriy ma'nosi.

III Bob. G'AZALLARNING LISONIY TAHLILI. (“ G'AROYIB US- SIG'AR” DEVONIDAGI DASTLABKI 5 G'AZAL)

III.1 G'azallar asosida eski o'zbek tilining fonetik xususiyatlari.

III.2 G'azallar asosida eski o'zbek tilining morfologik xususiyatlari.

III.3 G'azallar asosida eski o'zbek tilining leksik va sintaktik xususiyatlari.

IV Bob. G'AZALLARDA BOTINIY MA'NOLAR TIZIMI VA SO'ZLARNING RAMZIY-MA'RIFIY MA'NOLARI

IV.1 G'azallarda botiniy ma'nolar tizimi

IV.2 G'azallarda so'zlarning ramziy-ma'rifiy ma'nolari

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. XXI asr – intellektual salohiyatlar, texnika-texnologiyalar taraqqiyoti asri. Insoniyatning yashash turmushi yaxshilanishi bilan bir qatorda uni og'ir ahvolga solinishiga sabab bo'layotgan ixtiro-yu kashfiyotlar amalga oshirilayotgan davr. Bu davrda o'sib kelayotgan avlod jamiyatning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmog'i uchun kompyuter texnologiyalaridan xabardor bo'lmog'i, bir necha chet tillarni ona tili darajasida egallamog'i, dinlar tarixi bilan tanish bo'lmog'i, mamlakatda o'rnatilgan qonun-qoidalaridan xabardor tarzda ularga amal qilmog'i lozim. Shu bilan bir qatorda insoniyligi, inson sifatidagi vazifalarini unutib qo'ymasligi zarur. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarining birida: “Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim” deb ta'kidlab o'tgan edilar.**(1,36)** Ma'naviy jihatdan yetuk farzandlarni tarbiyalash barcha zamonlarda adabiyotning dolzarb va ustuvor vazifasi bo'lib kelmoqda. Mutaxassislarining ta'riflashicha, komillik–insonning kamolotga erishuv jarayonidagi barkamolligi darajasini ifodalovchi tushunchadir. Har bir millat o'z kelajak avlodida komillikni ko'rishni orzu qiladi. Shu sababdan o'zlari yaratgan dostonu ertaklarda, afsonalarda, badiiy asarlarda komillik darajasiga yetgan, har tomonlama ideal

timsollarni shakllantiradilar va o'z zurriyotlarini ana shu timsollarga xos xislatlar ruhida tarbiyalashga harakat qiladilar. Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan bu borada qator dastur va loyihalar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Jumladan, barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim o'chog'i hisoblangan ta'lim jahon standartlari darajasiga olib chiqilmoqda. Ana shunday keng imkoniyat yaratib berilgan maskanlarda barkamol avlodni tarbiyalashda o'ta katta mas'uliyat bilan yondashish kerak. Barkamol avlodni "Komil inson" g'oyasi asosida tarbiyalash lozimdir. Yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashda bobolarimizdan qolgan buyuk ma'naviy merosdan unumli foydalanmoq kerak.

Barkamol avlodga ega bo'lgandagina tarixga, qadriyatlarga va ma'naviy merosga sog'lom munosabatda bo'lish mumkin. Chunki "Ma'naviy, ilmiy va estetik qadriyatlar xalqimizning turmush tarzida, an'anaviy madaniyatida muhim o'rin olgan".**(1,57)** Inson kamoloti, barkamol avlod ma'naviy qiyofasi ana shu qadriyatlarni nechog'lik chuqur o'zlashtirganligiga bog'liq.

Har qanday jamiyatning asosiy boyligi inson va inson avlodidir. Inson kamolotiga bo'lgan munosabatga qarab muayyan jamiyatga baho beriladi, uni istiqboli yoki inqirozi haqidagi tasavvurni shakllantiradi. Xalqimiz tarixi guvohlik berishicha, "Ajdodlarimiz o'z nasllarini umumbashariy tuyg'ular, o'lmas Sharq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya qilib kelganlar. Ota-bobolarimiz asrlar davomida tilimizni, dinimizni, o'zbekning o'zligini har tomonlama asrab-avaylab, barkamol avlodlarni voyaga yetkazdilar".**(1,45)**

Shu jumladan, allomalarimiz asarlarida keltirilgan fikrlar ahamiyatli hisoblanib, yosh avlod tarbiyasi uchun dasturulamal deyish mumkin. Biz o'rganish va tadqiq qilish obyekti sifatida tahlilga tortayotganimiz Hazrat Alisher Navoiyning g'azallarida axloqiy pok qalb egalarini ma'naviy va ruhiy dunyosini boyitadigan chashmalarning biridir. Bu mavzuning dolzarbligi ya'ni komil insonni axloqiy pok qalb egasi qilib tarbiyalashda, so'zning qudratini va uning zohiriy, botiniy ma'nolarini anglash uchun mustahkam tayanch vazifasini bajaradi.

Mavzuning o'rganilishi. Jahon adabiyotining dohiy ijodkorlaridan biri Alisher Navoiy o'zbek tilida buyuk "Xamsa" yaratgan epik shoir, o'nlab ilmiy asarlar yozgan olimgina bo'lib qolmay, balki zabardast va yetuk lirik shoir hamdir.

Navoiy "Xazoyin-ul maoniy" "debocha"sida o'zining "nazm vozilasi va she'r vositasi bilan tamom umr"ini kechirganini yozadi. Shunga ko'ra ulug' Navoiy ijodiy merosining har bir baytiga alohida yondashish, o'ziga xos tahlil va tafsir usulini taqozo etadi.

Daqiq tilshunos va adabiyotshunoslar Alibek Rustamov(81), Najmiddin Komilov(49;50;51;52), Ibrohim Haqqulov(116;117;118), Nusratillo Jumayev(42), Rahimjon Vohidov(28;29;30;31;32;33;34;35) va boshqalar buyuk adib merosidagi zohiriy va botiniy ma'nolarini ochishga doir yirik tadqiqotlar yaratdilar. Atoqli navoiyshunos Alibek Rustamovning "Shoirning birinchi g'azali" maqolasi shu yo'ldagi dastlabki jiddiy qadam bo'ldi.(81,18) U «G'aroyib us-sig'ar» devonidagi joylashtirilishi o'rniga ko'ra birinchi g'azalning badiiyati, ramziy timsollari, ishqning may bilan o'ndan ortiq o'xshash tomonlari va oqibati jihatlariga ko'ra, tamoman zid farqlarini, har bir baytning zohiriy hamda botiniy ma'nolarini keng tahlil qildi.

Navoiyshunoslikda shoir g'azaliyoti muammolari atroflicha hal qilingan bo'lsada, uning tahliltalab nuqtalari juda ko'p. Zero, har bir satri bilan abadiylikka aloqador bu ulkan so'z san'atkorining ijodiy merosi o'rganilgan sayin chuqurlashib bormoqda. Shoir sirxonasidagi sirlar tagiga borgan sari sirlar ko'payib bormoqda.

Xususan, istiqlool munosabati bilan milliy qadriyatlarga yangicha munosabat, muallif asarini shu muallif davri, dunyoqarash nuqtai nazaridan haqqoniy baholashga, adibning o'zligini ochish va tanishga imkon berdi. Shuning uchun keyingi vaqtlarda Alisher Navoiy asarlarini ma'rifiy, orifona, falsafiy, tasavvufiy ma'nolarini ochish va ommalashtirishga qiziqish kundan kun oshib bormoqda. Milliy o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash esa mustaqil yurtning barkamol avlodiga yuksak ma'naviy ruh bag'ishlaydi. Shuning uchun mustaqil

jamiyatimizda barkamol avlod (shaxsni shakllantirish) tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan jiddiy masala sifatida qayta-qayta e'tirof etilmoqda.

Istiqlol tufayli Alisher Navoiy merosining tayanch g'oyaviy manbalari - Qur'oni Karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta'limoti ekanligi e'tirof etildi. Ulug' shoir tavalludining 550 yilligi munosabati bilan yangicha talqindagi maqolalar e'lon qilindi va "Alisher Navoiy. G'azallar, sharhlar» sarlavhali alohida kitob chop etildi.**(45)**Mustaqillik adabiy merosimizni yangicha yo'nalishda o'rganish istiqbollarini ochib berdi. Zero, birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon hisoblaymiz"**(1, 34).**

Alisher Navoiyning hamd va na't g'azallari ham xuddi ana shu yuksak g'oyalar badiiy ifodasini topadi. Allohga hamd vositasida insoniy poklik ulug'lanadi. Yaratganning ongli xalifasi (inson) o'z ma'naviy-ruhiy qiyofasini takomillashtirib, boyitib yashamog'i, solih amallar sohibi bo'lmog'i zarur. Shunday bo'lmas ekan, uning boshqa maxluqotlardan farqi qolmaydi. Navoiy hazratlari hamd va na't yo'nalishidagi asarlarining mag'z-mag'ziga ana shu ulug' g'oya singdirilgandir.

Istiqloldan so'ng mumtoz adabiyotning tayanch g'oyaviy manbalari asosida asarlarning islomiy-irfoniy ma'no qirralari kashf etila boshlandi. "Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari" nomli maqolalar to'plami nashr etildi.

Mavzuning maqsadi va vazifalari. Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi dastlabki 5 g'azalning matniy tahlilini tadqiq etish. Shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilarni vazifalar belgilandi:

- Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 1,2,3,4,5- raqam ostida turgan g'azallarning kompleks-filologik tahlilini berish ;
- g'azallarning arab va lotincha yozuvidagi matni berish;
- g'azallarning matnini vazn, ruknlarga ajratib berish;

- g'azallarning zohiriy ma'nosi belgilash;
- eski o'zbek tilining fonetik xususiyatlari g'azallar asosida ko'rsatish;
- eski o'zbek tilining morfologik xususiyatlari belgilash;
- eski o'zbek tilining leksik xususiyatlarini ko'rsatish;
- eski o'zbek tilining sintaktik xususiyatlari belgilash;
- g'azallarda botiniy ma'nolar tizimi va so'zlarning ramziy-ma'rifiy ma'nolari;

Bunday vazifa hozirgi kun uchun dolzarb bo'lib, amaliy ahamiyatga molikdir. Zero, o'rta maktabda ona tili va o'zbek adabiyoti darslari bitta o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va har bir asar o'qituvchi tomonidan faqat til yoki faqat adabiyot nuqtai nazaridan emas, balki filologik nuqtai nazardan tahlil etilishi zarur.

Bu ish shunday ko'nikmalar hosil qilish va mumtoz asarlarning kompleks filologik tahlili orqali badiiy va lisoniy xususiyatlarini o'quvchilarga yetkazish kabi amaliy-ta'limiy vazifalarga qaratilgan. Shuning uchun u tilshunoslik, adabiyotshunoslik va metodika fanlariga bir xil aloqadordir.

Ishning manbasi. Alisher Navoiyning “G'aroyib us-sig'ar” devonida 1,2,3,4,5- raqam ostida turgan g'azallar hisoblanadi. ularning kompleks-filologik tahlilini berish vazifasi qo'yiladi.

Ishning predmeti. “G'aroyib us-sig'ar” devonida 1,2,3,4,5- raqam ostida turgan g'azallarning kompleks-filologik tahlilidir.

Ishning nazariy-usuliy asosi. Milliy istiqlol mafkurasi, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy merosiga doir dono ko'rsatmalari, mumtoz she'rxunoslar Shayx Ahmad Taroziy, A.Fitrat, M.Shayxzoda, E.E.Bertels, I.Krachkovskiy, I.Sulton, N.Mallaev, A.Hayitmetov, B.Valixojayev, A.Abdug'afurov, A.Rustamov, A.Hojiahmedov, N.Komilov, R.Vohidov, I.Haqqulov, E.Shodiev, Y.Is'hoqov, S.Hasanov va turk olimlari

Abdurahmon Go‘zal, Usmon Keski o‘g‘li, Usmon Turarning badiiyat, tasavvuf falsafasi tadqiqot ishi uchun tayanch ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qildi(12; 14;16;17;19;20;21;26;27;31;33;34).

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasi ilohiy tavhid ilmining badiiy tafakkurga ta’siri jarayonini kuzatish asosida hamd yo‘nalishidagi asarlarga xos qiyosiy-tipologik xususiyatlarni oydinlashtirish hamda umumlashtirish zahirida ma’lum nazariy xulosalarga kelish imkoniyatini kengaytiradi. Ishda bayon qilingan fikr-mulohazalar o‘zbek mumtoz adabiyoti muammolari, jumladan, Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha ish olib borayotgan mutaxassislarga qo‘l keladi. Shuningdek, undan badiiy adabiyot mazmunini yanada teran fahmlashda, oliy va o‘rta umumta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari uchun o‘zbek adabiyoti tarixi fani bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratish, tavsiyanomalar ishlab chiqishda, maxsus kurslar o‘qishda, g‘oyaviy-axloqiy, mafkuraviy tashviqot va targ‘ibot ishlarida foydalanish mumkin.

Ishning joriylanishi. Ishimizning asosiy mazmuni Buxoro davlat universiteti professor-o‘qituvchilarining ilmiy anjumanlarida (2017-2018), Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirlardagi ma’ruza matnlarida, nashr etilgan o‘n besh maqola hamda respublika vaqtli matbuoti va turli ilmiy to‘plamlarda chop etilgan maqolalarda bayon qilingan. Jumladan, “**Filologiya masalalari (Hayrat va talqin)**”(Toshkent,2017)to‘plamida “**Alisher Navoiy g‘azallarida talmeh san’ati**”) (Toshkent,2017 127-128betlar) va “**Alisher Navoiyning hamd va na’t g‘azallarida tanosib san’ati**” (Toshkent,2017 130-132betlar) nomli 2 ta maqola nashr etildi. “**Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti**” jurnalining2017-yil 4-sonida ”Vatan tarkini bir nafas aylama...” nomli ilmiy maqolam e’lon qilindi. Maqolada hazrat Alisher Navoiy qalamiga mansub “ Badoyi ul-bidoya” devonida ikkinchi o‘rinda turgan g‘azalning zohiriy va botiniy ma’nolari yuzasidan ilmiy qarashlar o‘z aksini topgan.

Ishning tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasi o‘z mazmun-mundarijasiga muvofiq keluvchi kirish, 4bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. MATN BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY MASALALARI

I.1. Matn bilan ishlash texnologiyalari haqida

Inson jamiyatning va unda yuz beradigan jami o'zgarishlar markazida turuvchi asosiy figura sifatida o'z hayoti va faoliyati bilan bog'liq tushunchalarni nomlashda tilda mavjud bo'lgan turli vositalardan foydalanadi, hayotiy tajriba va ko'nikmalariga asoslangan holda narsalar va hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi, ularga tayanib umumiylik va xususiylik, tur va jinsga oid bilimlarini umumlashtiradi. Shu tariqa kishilarning asrlar davomida shakllangan ijtimoiy–tarixiy tajribasi tobora mukammallashib muomala jarayonida qo'llaniluvchi til birliklari mazmunida o'z ifodasiga ega bo'ladi. Til kishilarning tarixiy hayotiy tajribalarini o'zida aks ettiradi va lisoniy zaxiralarni ajdoddan avlodga yetkazish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va o'zaro tushunishning murakkab ijtimoiy-psixologik jarayoni sifatida turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Jumladan, verbal muloqot (belgili tizimlardan nutqda foydalanish) va noverbal muloqot (turli xil nutqiy belgili tizimlardan foydalanish)ni farqlash qabul qilingan.

Til inson tafakkurining qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi va o'zi xizmat qiluvchi millat yoki elat tarixidan guvohlik beruvchi qimmatli manba bo'lib, o'zida xalqning minglab yillar davomida to'plagan bilish tajribasini, uning urf – odatlari va etnik ideallarini, milliy xarakteri va taraqqiyot yo'lini aks ettiradi. Tilda mavjud bo'lgan va o'zaro aloqalarda faol qo'llaniluvchi lug'aviy birliklarning funksional xususiyati insonning voqelikni, voqelik faktlarini, hodisalarni atash uchun

xoslanganligi bilan belgilanadi. Jamiyat hayotining muntazam ravishda taraqqiy etib borishi bevosita insonning tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga munosabati, o'z ijtimoiy layoqati va tavsifi, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, hayot tarzi kabilarga chambarchas bog'liq. Bu aloqadorlik til taraqqiyotini, uning lug'aviy sathi yangi birliklar hisobiga tobora boyib, yangi tushunchalarni anglatuvchi so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Nutqning u yoki bu ko'rinishi uchun xoslangan bunday birliklarning til tizimida tutgan o'rnini aniqlash, ularning so'zlovchi kommunikativ maqsadiga bog'liq holda qo'llanish imkoniyatlarini ochib berish til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutq munosabatlarining mazkur masala bilan aloqador muhim tushunchalar ekanligidan dalolat beradi.

Keyingi yillarda badiiy matn, badiiy matn tahlili va talqini, matn turlari, badiiy matn va unda til birliklarining qo'llanish, umuman, matn bilan ishlash imkoniyatlarini adabiyotshunoslik hamda tilshunoslikning turli sathlari doirasida tadqiq etishga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi va bu muammolar bugungi kunda ham kun tartibidan tushgan emas. Insonning eng nozik his-tuyg'ulari asosida yuzaga kelgan badiiy matnlarda o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatish xususiyati kuchli tarzda namoyon bo'ladi. Badiiy matn shu ma'noda xalqimizning o'ziga xos mentaliteti, xarakteri, ijtimoiy turmush tarziga xos urf-odatlarini, milliy-ma'naviy qadriyatlari va asrlar osha davom etib kelayotgan an'analarini o'zida yaqqol ifodalaydi. Ijodkor tomonidan hayotni teran va sinchkovlik bilan kuzatish natijasida yuzaga kelgan har bir ijod namunasida ma'lum ma'noda ijodkorning o'z davriga xos hayot tarzi aks etadi, unda keng qamrovli masalalar qatori badiiy adabiyotimiz muammolari ham bo'rtib turadi. Badiiy matnlar millat ma'naviy dunyoqarashi, orzu-istaklarini tildagi mavjud usul va vositalar, lisoniy birliklar orqali yorqin ranglarda ifodalab beradiki, bu xususiyat uni san'atning boshqa turlaridan bir pog'ona yuqori ko'taradi. Shu o'rinda har bir badiiy ijod namunasining mukammal bo'lishi bevosita unda g'oya va ifoda uyg'unligidan iborat ekanligi, til va adabiyotning o'zaro uzviy bog'liqligi, ularning bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar ekanligi ayon bo'ladi. Ularni bir-biridan ajratib o'rganishning iloji yo'q. Til va badiiy ijod orasidagi chambarchas aloqadorlik,

shakl va mazmun yaxlitligi o'zbek xalqining shakllanishi va taraqqiy qilishidan guvohlik beruvchi shonli o'tmishi, turmush tarzi, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo'lgan tarixiy evrilishlar, ichki va tashqi ta'sirlar tufayli tilimiz lug'at tarkibining kundalik boyib borishidagi yangiliklar bilan hamohangdir. Yuqorida qayd etilganidek, bu holatlarning, avvalo, tilimiz lug'aviy sathida o'z aksini topishi sababi ham shunda.

O'zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida badiiy matnlarni o'rganish borasida turli yo'nalishda tadqiqotlar amalga oshirilgan. Adabiyotimiz va tilimiz tarixi, mumtoz badiiy asarlar matni tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlar jumlasiga G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, X.Doniyorov, Z.Hamidov, B.Bafojev kabi tilshunos olimlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. A.Qayumov, A.Hayitmetov, H.Hamidov, I.Haqqulov, B.To'xlijev, N.Rahmonov, Q.Yo'ldoshev, H.Boltaboev, B.Karimov, B.Ro'zimuhammad, Y.Solijonov, P.Qodirov(**44;56;87;97;69**) kabi adabiyotshunos olimlarning ishlarida matn orqali badiiy asarni tahlil va talqin qilish bilan bog'liq ilmiy-nazariy muammolar haqida fikr yuritilgan.

O'zbek tilshunosligida matnga bo'lgan munosabat badiiy til vositalari nuqtai nazaridan nutqning turli ko'rinishlarida qo'llanilishi ma'lum darajada tahlil etilgan. X.Doniyorov va B.Yo'ldoshevlar o'z kuzatishlarida adabiy til va badiiy uslub bilan bog'liq matn muammolari to'g'risida fikr yuritgan bo'lsalar, I.Qo'chqortoyevning tadqiqotlari o'zbek badiiy nutqini uslubiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. B.Yo'ldoshevning tadqiq doirasi birmuncha kengroq bo'lib, olim badiiy nutqda qo'llanuvchi vositalar, frazeologik birliklar uslubiyati masalalariga oydinlik kiritishga harakat qilgan. S.Karimovning o'zbek tilining badiiy uslubi bo'yicha izlanishlari esa vazifaviy uslublar tizimida mazkur uslubning tutgan o'rnini aniqlashga qaratilganligi bilan tilshunosligimizning katta yutuqlaridan hisoblanadi. Bundan tashqari o'zbek badiiy adabiyoti rivojiga o'z hissalarini qo'shgan ijodkorlar asarlari lingvostilistik jihatdan ma'lum darajada o'rganilgan. E.Qilichevning Sadridin Ayniy asarlarida arxaizm va istorizmlar, S.Boboyevaning Hamid Olimjon poeziyasining leksik xususiyatlarini,

M.Yoʻldoshevning Choʻlponning badiiy til mahoratini, S.Boymirzayevaning Oybek prozasining lingvostilistik xususiyatlarini M.Sultonovning Abdulla Qahhor, M.Muhiddinov va S.Karimovlarning Gʻafur Gʻulom, T.Qurbonovning P.Qodirov **(24;33;78;56;22)** asarlari tilini oʻrganishga oid tadqiqotlari tilshunosligimizda badiiy matnlarni oʻrganish boʻyicha katta ishlar qilinganligidan dalolat beradi.

Qayd etish lozimki, oʻzbek adabiyotshunosligida keyingi yillarda mazkur yoʻnalishdagi kuzatishlarda maʼlum bir evrilish yuzaga kelganligi seziladi. Bunday izlanishlar orasida badiiy asar matniga yangicha usullarda zamon talablari jihatidan yondashilgan, ayniqsa, mumtoz asarlar matnini baholashga qaratilgan ishlar ham anchagina.

Bu tadqiqotlarda mumtoz badiiy nutqda qoʻllangan badiiy tasviriy vositalarning xususiyatlarini yoritishga harakat qilingan. Oʻzbek adabiyotshunosligida keyingi yillarda muayyan bir ijodkorning mahorati, shoirning u yoki bu tasvir vositasini qoʻllashdagi oʻziga xosliklarini mufassal koʻrsatishga bagʻishlangan juda koʻplab tadqiqotlar yuzaga kelganligi quvonarlidir. Aytish lozimki, badiiy asarni oʻrganishda, ayniqsa, tahlil jarayonida koʻproq matnga tayanilgan holda xulosa chiqarilganligi koʻzga tashlanadi.

Darhaqiqat, oʻzbek adabiyotshunosligida saviyasi, ifoda imkoniyatlari turlicha boʻlgan zamonaviy asarlar bilan birgalikda, oʻtmishda yaratilgan mumtoz asarlarda hozirgi oʻzbek badiiy matnining oʻziga xos xususiyatlarini u yoki bu yoʻnalishda ochib berishga harakat qilingan. Adabiyotning oʻrganish obyekti inson va u bilan bogʻliq masalalar boʻlsa-da, ichki va tashqi omillar taʼsirida har bir millatni boshqa millatlardan ajratib, farqlab turadigan oʻziga xos milliy xususiyatlari mavjud. Bu haqda fikr yuritganda badiiy matnlarga sof lingvistik tahlil, uslubiyat va lingvopoetik nuqtayi nazardan yondashuvlar orasidagi farqli jihatlarni aniqlashga ehtiyoj seziladi.

Sof lingvistik kuzatishda badiiy asar tili, unda qoʻllanilgan til birliklarining mavqeyini aniqlashda ularning leksik-grammatik xususiyatlariga, gapda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish qonuniyatlariga asoslanilsa, uslubiy xususiyatlar esa

mazkur birliklarning nutqning qaysi ko‘rinishi uchun xoslanganligiga qarab belgilanadi. Lingvopoetik tahlilda esa masalaga faqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki umumfilologik jihatdan yondashiladi. Til birligining ham lisoniy xususiyatlari ham poetik matnni shakllantirishdagi imkoniyatlari hisobga olinadi. Chunki yuqorida qayd etilgan tamoyillarga asoslanilsa, masalaga bir yoqlama qarash, ya’ni yo sof tilshunoslik yoki sof adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yondashuv yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, shakl mazmundan ajratib qo‘yiladi. O‘tgan asrda o‘zbek va rus tilshunosligida yaratilgan ko‘plab tadqiqotlarda adabiyotshunoslik stilistikasi va lingvistik stilistika deb chegaralab qo‘yishlar o‘zini oqlamaydi. Bunday qarashga zid ravishda o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab rus tilshunosligida V.V.Vinogradov, G.O.Vinokurlar umumfilologik yo‘nalishni yoqlab chiqqan edilar**(43;45)**O‘zbek tilini uslubiy nuqtayi nazaridan o‘rganishning haqiqiy ahvoli to‘g‘risida bundan chorak asr muqaddam tilshunos olim E.Begmatov quyidagicha tasvirlagan edi: «O‘zbek tili stilistikasi sohasida ham keyingi yillarda barakali ishlar amalga oshirildi, ayniqsa, badiiy til stilistikasi rivojlandi. Lekin bu tadqiqotlarni badiiy adabiyot tili madaniyatini ko‘tarishga yetarli xizmat qilyapti, biror bir yozuvchini o‘z asari tili ustida chuqurroq o‘ylashga majbur etmoqda, deyish qiyin. Holbuki, o‘zbek badiiy adabiyoti tilida ma’lum nuqsonlar, hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar yetarli ekani sir emas. Adabiyotshunoslar esa, yozuvchi uslubini (badiiy stilni) til materialisiz, ya’ni badiiy asar tilini badiiy tahlil qilmasdan belgilashmoqda. Badiiy tilning tahlilisiz badiiy uslubni to‘liq belgilash mumkinmi?»**(34,23)**

Darhaqiqat, olimning mazkur fikrlari badiiy matnlarga filologik mezonlar asosida yondashish lozimligidan dalolat beradi. O‘zbek tilshunosligida badiiy matnlar bir tomondan tilimiz taraqqiyotini ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etsa, boshqa tomondan adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo‘shgan ijodkorlarning badiiy til vositalarini qo‘llash imkoniyatlarini, ularning asarlaridagi personaj nutqi va muallif nutqi munosabati va unda emotsionallik, ekspressivlik, modallik, obrazlilik kabi xususiyatlarning namoyon bo‘lishi haqida ma’lumot beruvchi

muayyan ilmiy manba ham hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida lingvopoetik yo'nalishda olib borilgan ishlar ko'p bo'lib, keyingi yillarda bu sohada ilgari olib borilgan tadqiqotlardan jiddiy farq qiluvchi asarlar maydonga kelmoqda. Ularda mavzu mohiyatiga antroposentrik nuqtayi nazaridan yondashuv, ya'ni badiiy asar tilining uslubiy, badiiy-estetik jihatlarini to'g'ridan to'g'ri inson omiliga, uning milliy an'ana va qadriyatlarimizga bo'lgan munosabatiga bog'lab talqin qilish yetakchilik qilmoqda. Badiiy matnlarni til va adabiy mezonlar uyg'unligida tahlilga tortish, ularda qo'llanilgan vositalarning lingvopoetik imkoniyatlarini belgilash ancha sarmashaqqat ish hisoblanadi. Bu kuzatuvchidan mavzuga kengroq miqyosda, ya'ni inson omili bilan bog'liq sohalar nuqtayi nazaridan yondashuvni talab qiladi.

Matnlar hajm belgisiga ko'ra minimal matn va maksimal matnlarga ajratiladi. Minimal deyilganda badiiy uslubda biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik, makromatn deyilganda esa keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik tushuniladi.

Ifoda maqsadi va mazmuniga ko'ra badiiy matnning quyidagi turlari mavjud: 1. Hikoya mazmunli matn. 2. Tasviriy matn. 3. Izoh mazmunli matn. 4. Didaktik matn. 5. Xabar mazmunli matn. 6. Buyruq mazmunli matn. 7. Hissiy ifoda mazmunli matn.

Matnning yuqorida qayd etilgan turlari mazmunan qanday bo'lsa-da, badiiy bo'yoqdorligi, tasviriy vositalarga boyligi va estetik ta'sirchanligiga ko'ra badiiy uslub talablariga bo'ysunadi.

Hikoya mazmunli matnlar muallif yoki asar qahramonlarining boshidan kechirgan voqealari, o'zlari guvoh bo'lgan hodisalar to'g'risidagi hikoyalar asosida yuzaga keladi. Ifoda uslubining o'ziga xosligiga ko'ra bu matn boshqa matnlardan ajralib turadi.

Tasviriy matnlar esa soʻzlovchi yoki yozuvchining voqelik faktlarini, hayotda oʻzi guvoh boʻlgan kishilar, voqea-hodisalarni tasvirlashi bilan xarakterlanadi. Bunda adresant adresatga maʼlum bir narsa va predmet, voqea-hodisalar, kishilar toʻgʻrisida maʼlumot berishni koʻzda tutadi. Matnning bu turida ham xuddi hikoya mazmunli matnlar singari monologik nutqqa asoslaniladi.

Izoh mazmunli matnlarda dalillarga suyanib fikr yuritiladi. Unda soʻzlovchi yoki muallif oʻz fikr-mulohazalarining toʻgʻri va asosli ekanligini isbotlashga xizmat qiluvchi dalil va izohlardan foydalanadi. Bunda uning fikr ifodalashdan maqsadi nutq qaratilgan shaxsni ishontirishdan iborat boʻladi.

Didaktik matnlar pand-nasihat asosiga quriladi. Bunda soʻzlovchi yoki yozuvchi tinglovchi yoki oʻquvchini maʼlum yoʻlga boshqarish, maʼlum bir ishni amalga oshirishga undaydi. U nutq qaratilgan shaxs ibrat olishi, xulosalar chiqarishi uchun turli hayotiyvoqea-hodisalarni hikoya qilib beradi, fikrlarining taʼsirchan boʻlishi uchun tildagi har xil leksik va frazeologik vositalar, maqollardan ham foydalanadi.

Xabar mazmunli matnlar esa nutq qaratilgan shaxsga maʼlum bir voqea-hodisa, kishilar, narsa va predmetlar, hayotiy masala yoki muammolar toʻgʻrisida maʼlumot yetkazish maqsadida tuziladi. Unda til bajaradigan eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri – xabar yetkazish yetakchilik qiladi.

Buyruq mazmunli matnlarda adresatni maʼlum bir harakatni bajarishdan qaytarish yoki maʼlum bir ishni amalga oshirishga undash asosiy maqsad qilib qoʻyiladi. Adresantningadresat yoshi, jinsi, oilaviy sharoiti, nutq vaziyati kabilarni hisobga olishiga qarab buyruq mazmuni maslahat maʼnosi bilan almashib turishi mumkin.

Hissiy ifoda mazmunli matnlar inson ruhiyati bilan chambarchas bogʻliqligiga koʻra matnning boshqa turlaridan keskin farq qiladi. Unda insonning turli insoniy munosabatlar yoki har xil tashqi taʼsirlar tufayli yuzaga keluvchi ruhiy holatlari, his –tuygʻulari, ichki kechinmalari oʻz aksini topadi.

Darhaqiqat, yuqorida qayd etilgan tamoyillar asosida badiiy matn tahlilni amalga oshirish adabiyotshunoslik uchun kutilgan natijalarni berishi tabiiy.

Tahlilga tortilgan har bir badiiy ijod mahsuli bo'lgan adabiy asarning poetik imkoniyatlari, emotsional-ekspressiv jihatdan mukammalligi uning asosini tashkil etuvchi badiiy tiliga qarab belgilanadi. Adabiy tilda mavjud bo'lgan poetik vositalar bir tomondan badiiy asar tilining ifodali va ta'sirchan, mantiqiy va uslubiy ravon bo'lishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan asarning badiiy-estetik qimmatini oshiradi, asar qahramonlarining ichki kechinmalari, ruhiyati tasvirini berishda muhim ahamiyat kasb etadi. G'azalSharqshe'riyatidunyogatanitdi. O'zbekmumtozadabiyotiningyiriknamoyandalariAtoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiyvboshqashoirlarningijodlaridag'azalasosiyjanrbo'ldi. XV asrgakelibog'zbekg'azaliyotiAlisherNavoiynomibilanbog'liqholdakamolotcho'qqisi gachiqdi. Ulug'shoiro'zbekg'azalchiliginirivojlantirishdaSakkokiy, Atoiy, Lutfiyningijodiyyutuqlarigasuyandi. Fors-tojikadabiyotininguchbuyukvakiliXusravDehlaviy, HofizSheroziy, AbdurahmonJomiyningg'azaliyotidankengko'lamdasaboqoldivaularningijodiytajribalarigayangiliklarhamkiritdi.

Alisher Navoiyning turkiy va forsiy merosiga oid hamd yo'nalishidagi g'azallar janriy tabiati va ularning badiiy-ramziy g'azallardan farqli jihatlarini oydinlashtirishga urinish mazkur tadqiqotning maqsadidir.

AlisherNavoiyo'zdevonlariningboshqaijodkorlardevonlaridanto'rtjiddiyfarqini «Badoe'ul-bidoya»ningdebochasidasanabo'tadi. O'shaqaydlarningikkinchivauchinchilaribizningtadqiqotimizgabevositadaxldordir, ya'ni «avvalbitigang'azaluslubxaysiyati» va «harharfg'azaliyotiningavvalgig'azaliTengritaolohamdibilamuvashshah, yorasulalayhissalomna'tibilamufattah, yomav'izabilamuvazzah» qilinganligidir.**(61,27)**

AlisherNavoiySharqdevonchiligravnaqinimavzu-ma'nonuqtainazaridanmuayyanbirtizimgasoldivaharbirasarini (fard, ruboiy, qit'a, g'azal, vah.k.) Ollohamdibilanboshladi. Qur'onimajidningharbiroyatikarimasi «Bismillohir-rahmonir-rahim» bilanboshlanadi. Shoirhamharbirishni, muqaddasniyatniilohiykalimabilanboshlashnixushko'radi. "Hayratul-

abror"ning mazkur ilohiy kalimatalqin bilan boshlanganligi fikrimizning yorqindalilidir. **(69,32)** Navoiy gacha ham mazkuran'ana (har bir asarni ham deb bilan boshlash) mavjud edi.

Ammo Sharq mumtoz adabiyotining biror bir namoyandasii jodidabuan'anayaxlitshaklida (farddandostongacha) namoyon bo'lgan emas.

Istiqlol yillari mobaynida ijtimoiy va madaniy hayotdagi o'zgarishlar jarayonida tilimizni, dinimizni, urf-odatlarimizni, ma'naviy qad-riyatlarimizni butkul yo'qotib qo'yish xavfidan saqlab, asrab-avaylab, ularning azaliy mazmuni va qudratini tiklashga keng yo'l ochib berildi. Tarixni xolisona o'rganish, tarixiy shaxslarga to'g'ri baho berish, mafkuraviy tazyiqlar asosida, davrga moslashtirish natijasida etarli bahosini olmay kelgan buyuk allomalarimiz, adiblarimiz ijodiga yangicha yondashish, sog'lom nuqtai nazar bilan qarash imkoniyatlari tug'ildi.

I.2 G'azallarning arab va lotincha yozuvidagi matni

زيهيهي حوسدنونگ ظهريدينتوشوبهوكيمگابرسودا

بوسودالربيلاكوندينبازاريدهيوزغوغا

سدني تاپماق بس مشكول دورورتاپ مسلايغ اسانكيم

ايرور پيدالغينگ پينهان ولي پينهان ليغنگ پيدا

چمن آت شگاهيگا آت شينگالدين چو اوت سالدينگ

سمندرديك اول اوتدين كلگه باتي بلبل شيدا

قوي شغاگاه قيزارماقگاه سارغارماق ايرور آندين

كه صنعنگ باده بار اول صفت يوزميدنگ گلي رعنا

نه اشكه بولدي بي آرام كوزگ و عكس يديك مجنون

يوزي كوزگ وسيد عكس يذنگني گركورگ وزمدي ليلى

نەيدىن يەنە بىر ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ
 يەنە بىر ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ
 كەلگەن بىر ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ
 نەيدىن بىر ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ
 جەمەت يەنە بىر ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ
 نەيدىن بىر ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ
 مەلەكە بىر ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ
 كەلگەن بىر ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ
 قەلەم يەنە بىر ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ
 دىل يەنە بىر ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ
 نەيدىن بىر ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ
 تەبىئەت يەنە بىر ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ ئۇلۇغ

1- G'azalning ("Ashraquat min ...") lotin yozuvidagi matni

Ashraquat min aksi shamsil-qa'si anvorul-hudo,
 Yor aksin mayday ko'r,deb jomdin chiqdi sado.
 G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,
 Yo'qtur,ey soqiy,mayi vahdat masallik g'amzudo
 Ey xush ul maykim,anga zaef o'lsa bir sing'on sofol
 Jom-u may gar bo'yladur,ul jom uchun qilmoq bo'lur
 Yuz jahon har dam nisor,ul may uchun ming jon fido
 Dayr aro xush ahli rasvo bo'lg'ali,ey mug'bacha

Jomi may tutsang, meni devonadan qil ibtido.

Toki ul maydin ko'ngil jomida bo'lg'ach jilvagar

Chehrai masudi mahv o'lg'oy homul dam moado

Vahdate bo'lg'ay muyassar may bila jom ichrakim

Jomu may hafzin degan bir ism ila qilg'ay ado

Sen gumon qilg'andin o'zga jomu may mavjud erur

Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido

Tashnalab o'lma, Navoiy, chun, azal soqiysidin

“Ishrabu, yo ayyuhal atshon “ kelur har dam nido.

2- G'azalning(“Zihi husnung...”) lotin yozuvidagi matni

Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,

Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g'avg'o.

Seni topmoq base mushkuldurur, topmaslig' osonkim,

Erur paydoliq'ing pinhon, vale pinhonlig'ing paydo.

Chaman otashgahiga otashin guldin chu o't solding

Samandardek ul o'tdin kulga botti bulbuli shaydo.

Quyoshg'a gah qizormoq, goh sorg'ormoq erur ondin,

Ki sun'ung bog'ida bor ul sifat yuz ming guli ra'no.

Ne ishga bo'ldi beorom ko'zgu aksidek Majnun,

Yuzi ko'zgusida aksingni gar ko'rguzmadi Laylo.

Nedin yuz gul ochar ishq o'tidin bulbul kibi Vomiq,

Yuzungdan gar uzori bog'ida gul ochmadi Uzro?

Kalomingni agar Shirin labida qilmading muzmor,

Nedin bas la'l o'lur Farhodning qon yoshidin xoro?

Jamoling partavidin sham o'ti gar gulsiton ermas,

Nedin parvona o't ichra o'zin solur Xaliloso?

Malohat birla tuzdun sarvqadlar qomatin, ya'ni

Ki mundoq zeb birla ul alifni aylading zebo.

Qanoatning dalilin inzovo qilding yana bir ham

Dalil ushbuki qoni' harfidan xalq aylading anqo

Navoiy qaysi til birla sening hamding bayon qilsun,

Tikon jannat guli vasfin qilurda gung erur go'yo.

3- G'azalning ("Ey safhayi ruxsoring ...") lotin yozuvidagi matni

Ey safhayi ruxsoring azal xattidin insho ,

Debochayi husningda abad nuqtasi tug'ro.

Zarrot aro har zarraki bor , zikringa zokir ,

Amtor aro har qatraki , bor, hamdinga go'yo.

Mashshotayi sun'ungdurur ulkim ,nafas ichra,

Kun ko'zgusin aqshom kulidin qildi mujallo.

Kun shakli yuzing sajdasidin bo'ldi mushakkal ,

Tun turrasi qahring elidin bo'ldi mutarro.

Sun'ing qilibon subhni ul nav` musha`bit ,

Kim, mehr o'tin og'zidin etar har nafas ifsho.

Go'yoki kuyar og'zi ul o't hirqatidinkim,

Anjumdin o`lur obilalar girdida paydo.
Muhtoj sening dargahinga xusravu darvesh ,
Parvarda sening ne`matinga johilu dono.
Gul yuzida bulbul sening asroringa notiq,
Sham o`tida parvona sening husnunga shaydo.
Ushshoq aro , yo rabki ,Navoiyg`a maqome,
Bergilki ,sening hamdinga bo`lsin tili go`yo.

4- G'azalning ("Ey hamd ...") lotin yozuvidagi matni

Ey hamd o`lub mahol fasohat bilan sanga
Andoqki, qurb taqvovu toat bilan sanga.
Topmoq ajib fikru tahayyul bila seni,
Yetmak mahol aqlu farosat bilan sanga.
Chun koinot zubdasi ojiz ko`rub o`zin,
Hamd ayta olmas oncha balog`at bilan sanga.
Izhoriajzbizdinadabtarkidur, base
Yuz ming qusuru nuqsu kasofat bilan sanga.
Har tiyra ro`zgorki, vaslingg`a yo`l topib
Sendin, yetib charog`i hidoyat bilan sanga.
Lutfung rafiqim o`lmasa ne hadki yetkamen
Boshdin ayog` gunohu zalolat bilan sanga.
Lutf aylagilki mumkin emas qilmasang qabul,
Yetmak tamomi umr ibodat bilan sanga.

Chun sendin o‘zga yo‘q panohim qochmayin netay

Jurmu gunahdin ohu nadomat bilan sanga.

Isyoni ko‘p Navoiyningu yo‘q uyotikim,

Istar yetishsa muncha xijolat bilan sanga.

5- G‘azalning (“Iloho podshoho ...”) lotin yozuvidagi matni

Iloho podshoho kirdigoro,
Sanga ochug’ nihonu oshkoro.

Sabur ismi bila qilsang tajalliy,
Qilib Namrudg’a yuz ming mudoro.

Qachonkim zohir etsang “tanze’ ul-mulk”,
Sikandarning bo‘lub mag‘lubi Doru.

Yo‘lung muhlik toshi yoquti ahmar,
Eshiging tiyra gardi mushki soro.

Suho bo‘lsa shabistoningda tole’,
Bo‘lub nuri quyoshdek olamoro.

Navoiy nafs zulmatig’a qolmish,
Sen o‘lmay Xizri rah chiqmoq ne yoro?

Qiyomatda gunohin afv etarg’a,
Rasulingni shafi’ et, kirdigoro.

II Bob “G’AROYIB US-SIG’AR” DEVONIDAGI DASTLABKI 5 G’AZALNING UMUMIY TAVSIFI.

II.1 Vazn va ruknlarga ajratib berilgan matni.

1-g’azalning ruknlarga ajratib yozilgan ko`rinishi quyidagichadir:

1 2 3 4

Ash-ra-qat min / ak-si sham-sil / ka`-si an-vo/ rul-xu-do

- V - - - V - - - V - - - V -

5 6 7 8

Yo-r (i) - ak-sin / may-da ko`r, deb / jo-mi-din chiq / di sa-do.

- V - - - V - - - V - - - V -

9 10 11 12

G`ay-r(i) naq-shi/ din ko`ngul jo/ mi-da bo`l-sa/ zan-gi g`am,

- V - - - V - - - V - - - V -

13 14 15 16

Yo`q-tu rey so/ qiy, ma-yi vah/ dat ma-sal-lik/ g`am-zu-do.

- V - - - V - - - V - - - V -

17 18 19 20

Ey, xu-sh ul may/ kim, a-nga zarf/ o`l-sa bir sin/-g`an sa-fol,

- V - - - V - - - V - - - V -
21 22 23 24

Jo-m o`-lur ge/ tiy-na-mo, Jam/ shid, a-ni ich/ kan ga-do

- V - - - V - - - V - - - V -
25 26 27 28

Jo-mu may gar/ buy-la-dur , ul/ jo-m u-chun qil/ moq bo`-lur,

- V - - - V - - - V - - - V -
29 30 31 32

Yuz ja-hon har/ dam ni-so-r, ul/ may u-chun ming/ jon fi-do.

- V - - - V - - - V - - - V -
33 34 35 36

Day-r a-ro hush/ ah-li ras-vo/ bo`l-g`a-li,ey/ mug`-ba-cha,

- V - - - V - - - V - - - V -
37 38 39 40

Jo-mi may tut/ sang me-ni de/ vo-na-din qil/ ib-ti-do.

- V - - - V - - - V - - - V -
41 42 43 44

To-ki ul may/ din ko`-ngul jo/ mi-da bo`l-g`ach/ jil-va-gar

- V - - - V - - - V - - - V -
45 46 47 48

Cheh-ra-i maq/su-di mah-v o`l/ g`ay ha-m ul dam/ mo-a-do.

- V - - - V - - - V - - - V -
49 50 51 52

Vah-da-te bo`l/ g`ay mu-yas-sar/ may bi-la jom/ ich-ra-kim,

- V - - - V - - - V - - - V -
53 54 55 56

Jo-mu may laf/zin de-gan bir/ is-mi-la qil/ g`ay a-do.

- V - - - V - - - V - - - V -

57

58

59

60

Sen gu-mon qil/ g`an-di-n o`z-ga/ jo-mu may mav/ jud e-rur,

- V - - - V - - - V - - - V -

61

62

63

64

Bil-ma-yin naf/ y et-ma bu may/ xo-na ah-lin,/ zo-hi-do.

- V - - - V - - - V - - - V -

65

66

67

68

Tash-na-la-b o`l/ ma Na-vo-iy, / chun a-zal so/ qiy-si-din,

- V - - - V - - - V - - - V -

69

70

71

72

“Ish-ra-bu, yo/ ay-yu-hal-at/ shon”ke-lur har/ dam ni-do.

- v - - - v - - - v - - - v -

Ramali musammani mahzuf (foilotun-foilotun-foilotun-foilun)

“ G`aroyib us-sig`ar” devonidagi 2-g`azal “Hajazi musammani solim” (mafoiylun rukning 8 marta takrori) vaznida yozilgan.

Aruz qoidalariga ko`ra rukn chegarasi bilan so`zlarning chegarasi to`g`ri kelmaydi. Juda ko`p hollarda so`zlarning (ya`ni bir so`zning) oxirgi tovushlari keying ruknga va so`zning birinchi bo`g`inini oldingi ruknga o`tkazish hollari uchraydi.

Asarning ruknlarga ajratib yozilgan ko`rinishi quyidagichadir:

1

2

3

4

Zi-hi hus-nung/ zu-hu-ri-din/ tu-shib har kim/ga bir sav-do

V— — — V — — — V — — — V — — —

5

6

7

8

Bu sav-do-lar/ bi-la kav-nay/n bo-zo-ri/ da yuz g'av-g'o

V — — — V — — — V — — — V — — —

9 10 11 12

Se-ni top-moq/ ba-se mush-kul/ du-rur top-mas/-lig' o-son-kim

V — — — V — — — V — — — V — — —

13 14 15 16

E-rur pay-do/li-g'ing pin-hon/ va-le pin-hon/li-g'ing pay-do

V — — — V — — — V — — — V — — —

17 18 19 20

Cha-man o-tash/ga-hi-ga o/ ta-shin gul-din/chu o't sol-ding

V — — — V — — — V — — — V — — —

21 22 23 24

Sa-man-dar-dek/ ul o't-din kul/-ga bot-ti bul/-bu-li shay-do

V — — — V — — — V — — — V — — —

25 26 27 28

Qu-yosh-g'a gah/ qi-zar-moq, gah/ sor-g'or-moq e/-rur an-din,

V — — — V — — — V — — — V — — —

29 30 31 32

Ki sun'-ung bo/-g'i-da bor ul/ si-fat yuz ming/ gu-li ra'-no

V — — — V — — — V — — — V — — —

33 34 35 36

Ne ish-ga bo'l/-di be-o-ro/ m ko'z-gu ak/-si-dek Maj-nun

V — — — V — — — V — — — V — — —

37 38 39 40

Yu-zi ko'z-gu/-si-da ak-sing/-ni gar ko'r-guz/-ma-di Lay-lo

V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _

41

42

43

44

Ne-din yuz gul/ o-char ishq o’-ti-din bul-bul/ ki-bi Vo-miq

V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _

45

46

47

48

Yu-zing-din gar/ u-zo-ri bo/ -g’i-da gul och/-ma-di Uz-ro?

V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _

49

50

51

52

Ka-lo-ming-ni/a-gar Shi-rin/ la-bi-da qil/-ma-ding muz-mor,

V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _

53

54

55

56

Ne-din bas la’/-l o’-lur Far-ho/-d-ning qon yo/-shi-din xo-ro?

V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _

57

58

59

60

Ja-mo-ling par/-ta-vi-din sham’/o’-ti-gar gul/-si-ton er-mas

V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _

61

62

63

64

Ne-din par-vo/-na o’t ich-ra/ o’-zin so-lur/ Xa-li-lo-so?

V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _ V _ _ _

65

66

67

68

Ma-lo-hat bir/-la tuz-dung sar/v-qad-lar qo/-ma-tin ya’-ni

V — — — V — — — V — — — V — — —

69

70

71

72

Ki mun-doq ze/b bir-la ul/ a-lif-ni ay /-la-ding ze-bo.

V — — — V — — — V — — — V — — —

73

74

75

76

Qa-no-at-ning/ da-li-lin in/-za-vo qil-ding/, ya-na bir ham

V — — — V — — — V — — — V — — —

77

78

79

80

Da-lil ush-bu/-ki qo-ni' har/-fi-din xalq ay/-la-ding an-qo

V — — — V — — — V — — — V — — —

81

82

83

84

Na-vo-iy qay/-si til bir-la/se-ning ham-ding/ ba-yon qil-sun,

V — — — V — — — V — — — V — — —

85

86

87

88

Ti-kan jan-nat/gu-li vas-fin/ qi-lur-da gung/ e-rur go'-yo

V — — — V — — — V — — — V — — —

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki –ga bir savdo(4-rukn), -n bozori(7-rukn), -da yuz g'avg'o(8-rukn), -durur topmas- (11-rukn), -lig' osonkim(12-rukn), -lig'ing pinhon(14-rukn), -lig'ing paydo(16-rukn), -gahiga o-(18-rukn), -tashin guldin(19-rukn), -ga botti bul-(23-rukn), buli shaydo(24-rukn), -g'i da bor ul(30-rukn), -di beoro-(34-rukn), -m ko'zgu ak-(35-rukn), -sidek Majnun(36-rukn), -sida aksing-(38-rukn), -ni gar ko'rguz-(39-rukn), -madi Laylo(40-rukn), -tidi bulbul(43-rukn), -g'ida gul och-(47-rukn), -madi Uzro(48-rukn), -mading muzmor(52-rukn), -l o'lur Farho-(54-rukn), -dning qon yo-(55-rukn), -shidin xoro(56-rukn), -tavidi sham'(58-rukn), -siton ermas(60-rukn), -na o't ichra(62-rukn), -la tuzdung sar(66-

rukn), -v qadlar qo-(67-rukn), -matin ya'ni(68-rukn), -b birla ul(70-rukn), -lading zebo (72-rukn), -zavo qilding(75-rukn), -ki qoni'har(78-rukn), -lading anho(80-rukn), -si til birla(82-rukn) ruknlarida so'zning ma'lum bir qismi (harf, tovush, bo'g'inlar)ning keyingi ruknga ko'chirish holatlarini ko'ramiz.

3-g'azalning vazni rajazi musammani mahzuf bahrida yozilgan.G'azal juda ajoyib o'xshatishlar bilan tasvir qilingan.Ikkinchi misradagi har bir zarraning va yomg'irning jonlantirilishi bilan tashxis san'atidan foydalanilgan.Shu misradagi zarrot, zarra, zikr,zokir so'zlari alleteratsiya san'atini hosil qilgan.Uchinchi misradagi bir nafasda so'zi orqali mubolag'a qilingan, mubolag'aning mazmunida esa xudoning shunchalar qudratli ekaniga ishora bor.G'azaldagi tun sochi, yuzing sajdası ,yuzing sahifasi kabi istioralar bilan g'ozal satrlar yaratilgan.Oltinchi misrada og'zidan olov sochilgach , olov og'izni kuydirib,atrofida pufakchalar paydo bo'lishini tongning ota boshlaganida bir yonib turuvchi so'nggi yulduzlarga o'xshatilgan.Yettinchi baytda esa,shoh va gado so'zlari orqali tazod san'ati hosil bo'lgan.

Ey, saf-ha-yi rux-so-ring a-zal xat-ti-din in-sho

•	-	v / v	-	-	v / v	-	-	v / v	-	-
	1		2		3		4			

De-bo-cha-yi hus-nung-da a-bad nuq-ta-si tug'-ro.

•	-	v / v	-	-	/ v v	-	-	/ v v	-	-
	5		6		7		8			

Zar-rot a-ro har zar-ra-ki bor, zik-ring-ga zo-kir,

•	-	v / v	-	-	v / v	-	-	v / v	-
	9		10		11		12		

Am-tor a-ro har qat-ra-ki,bor,ham-ding-ga go'-yo.

•	-	v / v	-	-	v / v	-	-	v / v	-	-
	13		14		15		16			

Mash-sho-ta-yi sun-'ung-du-rur ul-kim, na-fas ich-ra

• - v /v - - v / v - - v/ v - -
 17 18 19 20

Kun ko'z-gu-sin aq-shom ku-li-din qil-di mu-jal-lo.

• - v / v - - v / v - - v / v - -
 21 22 23 24

Kun shak-li yu-zing saj-da-si-din bo'l-di mu-shak-kal,

• - v / v - - v / v - - v/ v - -
 25 26 27 28

Tun tur-ra-si qah-ring ye-li-din bo'l-di mu-tar-ro.

• - v / v - - v / v - - V/ v - -
 29 30 31 32

Sun'-ung qi-li-bon sub-h(i)-ni ul na-v(i)mu-sha-bid,

• - v / v - - v/ v - - v /v - -
 33 34 35 36

Kim, mehr o'-tin og'-zi-din e-tar har na-fas if-sho.

• - v / v - - v/ v - - v /v - -
 37 38 39 40

Go'-yo-ki ku-yar og'-zi ul o't hir-qa-ti-din-kim,

• - v /v - - v/ v - - v / v - -

41 42 43 44

An-jum-din o'-lur o-bi-la-lar gir-di-da pay-do.

• - v/ v - - v / v - - v /v - -

45 46 47 48

Muh-toj se-ning dar-ga-hin-ga xus-ra-vu dar-vesh,

• - v / v - - v / v - - v/ v - -

49 50 51 52

Par-var-da se-ning ne'-ma-ting-ga jo-hi-lu do-no.

• - v / v - - v / v - - v / v - -

53 54 55 56

Gul yu-zi-da bul-bul se-ning as-ro-rin-ga no-tiq,

• - v / v - - v / v - - v/ v - -

57 58 59 60

Sham o'-ti-da par-vo-na se-ning hus-nun-ga shay-do.

• - v /v - - v / v - - v/ v - -

61 62 63 64

Ush-shoq a-ro, yo Rab-ki, Na-vo-iy-g'a ma-qo-me

• - v / v - - v / v - - v / v - -

65 66 67 68

Ber-gil-ki,se-ning ham-din-ga bo'l-sun ti-li go'-yo.

• - v / v - - v / v - - v / v - -

69

70

71

72

4-g`azalning vazni rajazi musammani mahzuf bahrida yozilgan. G`azal juda ajoyib o`xshatishlar bilan tasvir qilingan .

Ey hamd o`lub / mahol faso / hat bilan sanga

- V - / - - V - / - V - V / -

Andoqki, qurb / taqvovu to / at bilan sa / nga.

- V - / - - V - / - V - V / -

Topmoq ajib / fikru tahay / yul bila seni,

- V - / - - V - / - V - V / -

Etmak mahol / aqlu faro /sat bilan sa / nga.

- V - / - - V - / - V - V / -

Chun koyinot / zubbasi oj / iz ko`rub o`z / in,

- V - / - - V - / - V - V / -

Hamd ayta ol / mas oncha ba / log`at bilan sa / nga.

- V - / - - V - / - V - V / -

Izhorl ajz / bizdin adab / tarkidur, ba / se

- V - / - - V - / - V - V / -

Yuz ming / qusuru nuq / su kasofat bilan sa / nga.

- V - / - - V - / - V - V / -

Har tiyra / ro`zgorki, vas / lingg`a yo`l top / ib

- V - / - - V - / - V - V / -

Sendin, etib / charog`i hido / yat bilan sa / nga.

- V - / - - V - / - V - V / -

Lutfung rafiqim / o`lmasa ne / hadki etka / men

- V - / - - V - / - V - V / -

Boshdin ayog‘ / gunohu za / lolat bilan sa / nga.

- V - / - - V - / - V - V / -

Lutf aylagilki / mumkin emas / qilmasang qa / bul,

- V - / - - V - / - V - V / -

Etmak tamo / mi umr ibo / dat bilan sa / nga.

- V - / - - V - / - V - V / -

Chun sendin / o‘zga yo‘q panah / im qochmayin ne /tay

- V - / - - V - / - V - V / -

Jurmu gunah / din ohu na / domat bilan sa / nga.

- V - / - - V - / - V - V / -

Isyoni ko‘p / Navoiyning / u yo‘q uyoti / kim,

- V - / - - V - / - V - V / -

Istar eti / shsa muncha / xijolat bilan sa / nga.

- V - / - - V - / - V - V / -

5- g`azal aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Taqte` si :
mafoilun / mafoilun/ mafoilun/ faulun

Iloho, po/d(i)shoho, kir/digoro,

V - - - / V - - -/ V - -

Sanga o/chug‘ nihonu o/shkoro.

V - - - / V - - - / V - -

Sabur ismi / bila qilsang / tajalliy,

V - - - / V - - -/ V - -

Qilib Namru / d(i) g‘a yuz ming / mudoro.

V - - - / V - - -/ V - -

Qachonkim zo / hir etsang «tan / zi’-ul-mulk»,

V - - - / V - - - - / V - -

Sikandarning bo‘/ lub mag‘lubi / Doro.

V - - - / V - - - - / V - -

Yo‘lung muh/lik toshi yoquti / ahmar,

V - - - / V - - - - / V - -

Eshiging tiy / ra gardi mush / ki soro.

V - - - / V - - - - / V - -

Suho bo‘lsa / shabistoning / da toli’,

V - - - / V - - - - / V - -

Bo‘lub nuri / quyoshdek ola / moro.

V - - - / V - - - - / V - -

Navoiy nafs / zulmotig‘a / qolmish,

V - - - / V - - - - / V - -

Sen o‘lmay Xi / zri rah chiqmoq / ne, yoro?!

V - - - / V - - - - / V - -

Qiyomatda / gunohin afv / etarga

V - - - / V - - - - / V - -

Rasulingni / shafi’ et, kir / dgoro

V - - - / V - - - - / V - -

Mumtoz asarlarni ruknlarga bo‘lib yozish, bu asarlarni to‘g‘ri o‘qish va qo‘shiqlarda ijro etishda katta ahamiyatga molikdir. Zero, hozirgi qo‘shiqchilar ruknlarga ajratishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Mumtoz adabiyot vakillarimizning g‘azallarni ifodali o‘qish jarayonida rukmlarga rioya qilmay, taktlarni so‘z va so‘z birikmalariga tayanib ajratadi. Bu esa mumtoz adabiyotimiz nuqtai nazaridan noto‘g‘ridir. Shuning uchun qo‘shiqchi, deklamator va o‘quvchilarga mumtoz nazmimiz namunalarini ruknlarga ajratib berish katta foyda beradi.

II.2 G'azallarning zohiriy ma'nosi.

1-G'azal ("Ashraquat min....")ning zohiriy ma'nosi.

-Ertalab chiqqan quyosh kosasining aksidan hidoyat nurlari porlab ko'rindi va Xudoning jamolini uning tajalliysida ko'r,deb olamdan sado chiqdi.

-Ey soqiy,agar Xudodan o'zga tashvishlar ,moddiy dunyo g'amu anduhi ko'ngil oynasini kir qilgan bo'lsa,bu kir - zangni faqat ilohiy tajalliy nuri,shu nur zavqi bilan yuvish mumkin.

-Bu nur,bu may shunday ajoyibki,unga bir singan spool kosa bo'lagi – faqir kishi ko'ngli ham idish bo'lishi mumkin ,o'shanda jom – butun olamni ko'rsatadigan bo'ladi va bu jomdan may ichgan ,ya'ni tajalliy nuridan b ahra topgan odam,gado bo'lsa-da,o'zini podshoday his qiladi.

-Agar jom bilan may shunaqa bo'lsa ,bu jom uchun yuz jahonni bag'ishlasa,ming jonni fido qilsa arziydi.

-Ey pir so'zini keltiruvchi ,pir majlisida hushyorlar hushini yo'qotib,behuda rasvo bo'lish uchun yig'ilgan ekan ,agar pir mujdasi,so'zini yetkazmoqchi bo'lsang,buni men devonadin boshlagin.

- Shunda bu ilohiy nur – maydan ko'ngil jomi yorishib ketib,chehrai maqsud – Alloh jamoli namoyon bo'ladi va o'sha zahoti Allohdin boshqa narsalar yo'qoladi.

-Shunday holatda may bilan jom,ya'ni ilohiy tajalliy bilan dunyo yoki ko'ngil orasida bir yaqinlik,birlashish yuz beradiki,"jom" va "may" so'zlarini talaffuz qilgan odam har ikkisini bir nom (so'z) bilan ifodalashi mumkin.

-Ey zohid,sen o'ylayotgan jomu mayni aytayotganim yoq,chunki bus en nazarda tutgan jomu may emas,bilmasdan darveshlarni malomat qilma.

-Ey Navoiy ,azaliy zot – Parvardigori olam tajalliysi nuridan bebahra bo'lma, chunki uning o'zo o'z kalomida “ Iching ,ey tashnalar” deb qo'yibdi.

Lug'atlar

Ashraquat min shamsil qa'si anvorul-hudo –Quyosh kosasining aksidan hiyoat (yo'l ko'rsatuvchi ,rahnomalik qiluvchi)nurlari porlab chiqdi.

Yor – do'st ,sevgili,Xudovand ma'nosida

Aks – ilohiy nurning tajallisi ,jilolanib,porlab ko'rinishi

May – ichimlik,orifona ma'noda ilohiy tajalliydan sarxushlik,muhabbat zavqining to'lib-toshishi

Jom –may ichiladigan idish kosa,bu yerda :1)orif inson qalbi ;2)ilohiy tajalliy aks etgan moddiy dunyo,borliq ma'nolarida kelgan

Soqiy -1)yaqin do'st,2)mashuqa;3)piri komil;4)parvardigor.Bu baytta piri komil ma'nosida keltirilgan

Mayi vahdat –birlik,yagonalik mayi.Orifona ma'noda Xudo diydoriga oshiq insonning qalbida ilohiy nur porlab ,ruhi Mutlaq ruh bilan qo'shilishi va shu tufayli oliy ma'naniy lazzat topishi.Ayni paytda ilohiylik va moddiylikning birlashuvi,jamuljam bo'lishini ham anglatadi.

Chehrai maqsud – maqsad yuzi .Alloh nurining porlab namoyon bo'lishi ,ilohiy haqiqatning ayonlashuvi.

Mahv bo'lmoq – yo'qolish,ko'rinmay qolish,erib ,qorishib ketish.

Maoda – Allohdan o'zga narsalar,ya'ni moddiy dunyo.

Vahdat - birlashish

Lafz – so'z,ibora

Nafy – tanqid,inkor

Mayxona – komil inson

Zohid – umrini taqvo va toat bilan o'tkazadigan parhezkor odam

Azal soqiysi – Alloh taolo

Ishrabu yo ayyohul-atshon – ichingiz,ey tashnalar (Qur'on,Baqara surasi 60-oyat)

Nido – ovoz,sado.

Musallik – kabi,o'xshagan,bamisoli

G'amzudo – g'amni,dunyo tashvishini ketkazadigan

Mayi vahdat

Zarf - idish

Sing'on sofol – spool kosa parchasi ,ko'chma ma'noda siniq ko'ngul,xoksorlik

Getinamo – olamni ko'rsatuvchi

Jamshid – qadimgi Eron podsholaridan

Nisor – bag'ishlash,tuhfa qilish

Dayr – zardushtiyalar ibodatxonasi,butxona,nasroniy rohiblar yig'iladigan joy ,shuningdek,dunyo ma'nosida ishlatiladi.

Mug'bacha – zardushtiy otashparastlar ibodatxonasi (dayr) ning xizmatkori .Tasavvufiy ma'noda pirning so'zi va nasihatlarini ,fayzu tarovatini muridlarga yetkazuvchi kishi

Devona – ilohiy jozba tekkan oshiq inson

Ibtido – boshlash,avval, boshlanadigan joy.

2-g'azal(“Zihi husnung...”)ning zohiriy ma'nosi

1-bayt. Husningning oshkor bo'lishi har bir boshga bir hayolni-savdoni soldi;

Bu fikr o'ylovlar tufayli ikki olam bozorida g'ala-g'ovurlar bo'ldi.

2-bayt. Seni topish shunchalik qiyin, chunki yashirindirsan, topmaslik esa osondir; Sening oshkorliging yashirindir, yashirinliging esa ayondir.

3-bayt. Chaman gulzoriga go'zal gullardan o'tlar yoqding, bu o'tlar ichida shaydo bulbul samandardek kulga belandi.

4-bayt. Quyoshdek ulkan mavjudotga qizarmoqlik va sarg'aymoqlik xos bo'lsa yaratgan bog'ingdagi bir gul sifatleri undan ortiqdir. Xolbuki, bu guli ra'nolar yuz mingta.

5-bayt. Nega Majnun ko'zguda ko'rgan narsasidan beorom bo'ladi. Laylo yuzi ko'zgusida sening aksingni ko'rsatdi.

6-bayt. Nega Vomiq bulbul kabi gullar ishqida o'rtanadi. Zeroki, Uzro yuzida sening gul yuzing o'z aksini topdi.

7-bayt. Qanday qilib qattiq tosh Farhodning qon yoshidan la'lga aylandi. Chunki sen qudratli so'zlaringni Shirin labida yashirib, unga yetkazding.

8-bayt. Jamoling nuridan sham o'ti yorug'roq emas, parvonaning o't ichra Haliloso (Ibrohim Haliloloh) misol o'zini (Namrud) olovga solishi ham shundan.

9-bayt. Sarv (tikka o'sadigan daraxt) qadlar qomatini yoqimli qilib tuzding. Alifdek tik o'suvchi sarv qadni ziynatlading va u zebo-go'zal bo'ldi. Ya'nikim, ¹ (alif)ga زب (tanyiz, bez) u av gnidhs'oq (idl'ob laz'og) با

10-bayt. Qanoat dalili o'zni cheklash, nafsni tiyish ekan, qanoat esa anqo (Qof tog'i ortida yashovchi isman boru jisman yo'q topilmas qush) kabidir. اقن ع aksidir.

11-bayt. Tikan jannat guli- eng go'zal narsa vasfini qilishda gung bo'lganligi kabi Navoiy qaysi til bilan sening hamdingni—maqtovingni qilsin.

3 -g'azalning zohiriy ma'nosi

Yuzingning sahfasi azaliylik xati bitilgan , husning kitobining muqaddimasida umrboqiylik unvoni bor.

Borliqdagi barcha zarralar sening ismingni tilga oladi, yomg'irning har bir tomchisi ham maqtovingni aytadi.

Sening yaratuvchi bezakching bir nafasda kunduzning ko'zgusini tun kuli bilan tozalab jiloladi .

Quyoshning shakli senga sajda qilish holatidan hosil bo'lgan . tunning sochi qahring shamolidan tozalanadi.

San'ating tongi shunday hiylagar qilibdirki ,u quyosh taftini har damda og'zidan namoyon qilib turadi.

Shu olovning haroratidan go'yo og'zi kuyganday atrofida yulduzlardan suv pufakchalari ,qavariqlar paydo bo'ladi.

Senga podsho ham , darvesh ham muhtoj bo'lib intiladi , nodon ham , dono ham sening ne'mating bilan tarbiyalanadi.

Gulga shaodo bo'lib turgan bulbul sening siringni kuylaydi ,parvona ham sham shulasiga intilganday senga intiladi.

Yo Rabbim , Navoiyga shunday maqom bergilki,shunday kuy berki ,sening maqtovingga tili go'yo ya'ni , ravon bo'lsin.

Notanish so'zlar lug'ati:

Safxa – sahifa

Ruxsor- yuz

Azal – boshlanishi yo'q zamon, azaliy, ibtidosiz qadimiylik

Debocha- kirish, muqaddima, boshlanish

Abad- cheksizlik, cheksiz davomiylik, tuganmas zamon

Ushshoq- oshiqlar

Zarrot- zarralar

Zikr- nomini tilga olish, eslash, Zokir- Alloh ismini tilga olib yurguvchi odam

Amtor- yomg'ir tomchilari

Hamd- maqtov

Mashshota- pardozi, yuzni , sochini bezaydigan odam

Mujallo- sayqal berilgan, jilolangan

Mushakkal- shaklga kirgan , shakllangan

Turra- zulf, soch

Mutarro- tarovatli, toza

Subh- tong

Mushabid- nayrangboz

Ifsho- fosh qilmoq, oshkora etmoq

Hirqat- alanga, harorat, issiqlik

Anjum- yulduzlar

Obilalar- qavariqlar, pufakchalar

Gird- atrof, aylana

Parvarda- tarbiyalangan , parvarish qilingan

Asror- sirlar

Tug`ro- podshoh farmonining ifoda belgisi, shohona unvon

4 -g'azalning zohiriy ma'nosi

1-bayt. Birinchi baytdanoq o'quvchi bu g'azalning hamd g'azal ekanligini bilib oladi. Chunki birinchi misraning o'ziyoq dunyoyi xilqatni yaratgan Olloh – taollohning hamdi bilan boshlanadi.Ollohga hamdlar-u sanolar , tasannolar izhor etiladi. Hamdning o'zi ham ming qurbonlik-u toat-ibodatlar bilan izhor qilinayotganligi shoir tomonidan 2-misrada bayonetiladi.

2-bayt. Keyingi baytda shoir ollohni ming fikr-u xayol bilan topganligini , uning, ya'ni Olloh taollohning vasliga yetishishuchun aql va farosatning o'zi yetmasligini aytib o'tadi.

3-bayt. Bu baytda hatto Ollohga yaqin turuvchi koinotning o'zi ham unga hamd izhor etishda ojiz ekanligi bayon etilib,Ollohning buyukligiga va yuksak qudratga ega ekanligiga ishora etilmoqda.

4-bayt. Bu baytda shoir qanchalik odamzotning Olloh visoliga erishishi qiyin bo'lsa-da , ammo ojizlikdan , odob saqlashdan o'zimizni tark aylaymiz va yuz ming qusurimiz, nuqsonimiz, g'alizligimiz bo'lsa-da ,ammo-lekin Olloh visoli og'ushidan o'zimizni uzoqda tutishni istamaymiz demoqchi bo'lib , komillikka intilish sifatlarini bu baytda ifodalab bermoqchi bo'ladi.

5-bayt. Baytda shoir Ollohga murojaat etib ,sening vaslingga yetmoqni mayl aylagan har kishining ro'zg'ori {kuni} g'amli, alamli kechayotganini aytib, lekin ikkinchi misrada bunga zid ravishda Olloh huzuriga olib boruvchi yo'l qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, baribir solik qalb egasiga huzur , halovat baxsh etadi deydi.

G'azalda uchraydigan mazmuni tushunarsiz bo'lgan so'zlar ma'nosi:

1.Taxayyul - xayol surish, xayolga berilish.

2.mahol - vaqt, zamon

3.dog' - belgi , nishon, iz, asar.

4.hamd – hamd-u sano (ollohga tasannolar keltirish)

5.balog'at – yoshlik , go'daklikdan keyingi davr.

6.ajz - 1) ojizlik, zaiflik, kuchsizlik 2) xastalik

7.qusur – nuqs so'zining sinonimi, nuqson

8.nuqs – qusur so'zining sinonimi ,kamchilik,nuqson

9.kasofat – dag'allik, qo'pollik, g'alizlik

10.tiyra – 1) qora,qorong'i

2) g'am-g'ussali, qayg'uli

3) xira; nursiz

11.hidoyat

12.zalolat - xorlik, pastlik, haqirlik, tubanlik, gumrohlik, yo'ldan ozganlik

13.jurm – gunoh , ayb

14.nadomat- pushaymon, afsuslanish

15.fasohat- so'zning ochiq, ravshan, chiroyli va qoidaga muvofiq bo'lish.

5-g'azalning zohiriy ma'nosi

1-bandda ollohga murojaat, ya'ni hamma oshkor va pinhon sirlar senga ayondir.

2-Sabrli nomi bilan (buyerdagi sabur (arabcha "sabrli" degani) ko'rinish (tajalli) qilsang. Namrudga ming mudoro qil-deyiladi. Buyerdagi talmeh san'ati qo'llangan va "Qissasi Rabg'uziy" dagi Namrud obrazi keltiriladi.

3-Qachonki "tanzi-ul-mulk" bilan to'lqinlansang (zohir etmoq-to'lqinlanmoq) Iskandar mag'lubi Doro bo'lasan-deyiladi.

4-Yo'lingning halok qiluvchi toshi qip –qizil yoqut, eshigingning quyuq changi toza mushkdir, deyiladi.

5-Qorong'u kechada Suho (hulkar to'plamidagi eng xira yulduz) bo'lsa, quyosh nuriday olamni yoritay, deyiladi.

6-Bu bayt boshqa baytlardan biroz farq qiladi, Navoiy nafs zulmatiga qoladi, sen o'lmay turib, Xizr tog'iga chiqsa, ey yor.

7-Qiyomatda gunohim sud qilinganda, menga Rasulni himoyachi qil, deyiladi.

G'azaldagi so'zlar lug'ati:

Kirdigor- forscha so'z bo'lib, yaratuvchi, xudo; kirdigoro- ey yaratuvchi;

Sabur- arabcha sabrli, to'zimli;

Tajalliy- arabcha ko'rinish, jilvalanish.

Zohir- arabcha- 1.ravshan, porloq 2.Zohir etmoq- bilintirmoq, ko'rsatmoq, yuzaga chiqarmoq;

Muhlik- arabcha halok qiluvchi, o'ldiruvchi, yo'q qiluvchi;

Ahmar- arabcha qip- qizil;

Tiyrat gard- forscha quyuq chang, qalin to'zon, qorong'ulik;

Soro- forscha xolis, toza, sof; mushi soro- sof mushk, toza mushk;

Suho- arabcha Hulkar to'plamidagi yulduzlarning eng xirasi;

Shabiston -forscha 1.kechki yotoqxona, ichki haram doirasi, 2.qop-qorong'u kecha, qorong'ulik;

Xizr - arabcha afsonalarga ko'ra, "obi hayvonni" izlab topgan va undan ichib ko'rgan, doimiy tiriklik ramzi sifatida qaraluvchi payg'ambarning ismi.

Xizr roh- yo'l ko'rsatuvchi Xizr.

Namrud- arabcha Ibrohim payg'ambarni o'tga tashlagan podsho;

Mudavo- davolash;

Shafe' etmoq- arabcha voitachi, himoyachi;

Qiyomat- arabcha mifga ko'ra go'yo insonlarning qayta tirilish kuni; 2.maj. qo'zg'alon, g'avg'o, to'polon, dahshat;

Qiyomat solmoq- qo'zg'alon solmoq; dahshat solmoq;
Tanzeh- yomonlik va yaramasliklardan pok qilish, tozalash.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hamd g'azallar esa murakkab ramziy tizimda yozilgan g'azallar uchun ma'naviy-ruhiy poydevor vazifasini o'taydi. Shuning uchun Alisher Navoiy san'atning mohiyatini xalqqa xizmat qilishida deb bilgan va amaliy faoliyatini ham shu asosda o'tagan.

III Bob. G'AZALLARNING LISONIY TAHLILI. ("G'AROYIB US-SIG'AR" DEVONIDAGI DASTLABKI 5 G'AZAL)

III.1 G'azallar asosida eski o'zbek tilining fonetik xususiyatlari.

G'azallar eski o'zbek tilining buyuk san'atkori bo'lgan Alisher Navoiy qalamiga mansub bo'lganligi sababli bu g'azalda eski o'zbek tili uchun xos bo'lgan eng xarakterli fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini ko'rish mumkin. Bundayo'zigaxosliklarnibirma-birquyidako'ribo'tdik.

AlisherNavoiyeskio'zbektiliningfonetikimkoniyatlarinichuqurbilgan. O'zining
"Muhokamatul-lug'otayn" asaridahambuyukmutaffakireski o'zbek
tiliningfonetikxususiyatlariborasidato'xtalib,
she'rtuzishvaqofiylashdagiquayliklarnie'tirofetib,
tildagiunlilarningcho'ziqvaqisqaligiaruzvaznitalablarigajudamoskelishinita'kidlayd
i.

G'azallarda "i", "u", "o", "e", "a", "o" unlilarini ajratish mumkin. "o" va "a" unlilari asarda o'zaro almashinib turadi. Asarda "u" va "o" unlilarining qattiq va yumshoqligi jihatidan farqlanuvchanligi kuzatilmaydi. Vaholanki, tadqiqotchilar

Ne'matov, Abdullayev, Borovkov, Doniyorov , Rustamov, Umarovlar Navoiy asarlarida bu unilarning qattiq va yumshoq ko'rinishlari borligi haqida fikr yuritadilar.**(46,32,34,81)**

G'azal materiallari asosida Navoiy tilida istagan unlining "o"dan tashqari cho'ziq va qisqa talaffuz etilishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Aruz vazni buni isbotlovchi muhim omildir. Biz quyida har bir unlining cho'ziq va qisqa talaffuziga misollar beramiz.

- "i" unlisi.

a)cho'ziq o'qilishi holatlari:

-hi(1-r), ri(2-r), -din(2-r), kim(3-r), bir(4-r), -ri(7-r), -ni(9-r), kim(12-r),-g'ing((14-r), -pin(14-r), -g'ing(15-r), pin(16-r), -hi(18-r), -shin(19-r), din(19-r), ding(20-r), din(22-r), ti(23-r), li(24-r),din(28-r), ming(31-r),-li(32-r), shi(33-r), zi(37-r), sing(38-r), din (41-r), ishq(42-r),- bi(44-r), miq(44-r), din(45-r), ri(46-r),di(48-r), ming(49-r),ni(49-r), shi(50-r), rin(50-r), bi(51-r), qil(51-r), ding(52-r), din (53-r), ning(55-r), din(56-r), ling (57-r),vi(58-r),din(58-r), ti(59-r), ich(62-r), zin(63-r), li(64-r), bir(65-r), tin(68-r), ni(68-r), bir(70-r), lif(71-r), ni(71-r), ding(72-r), ning(73-r), li(74-r), lin(74-r), in(74-r), qil(75-r),ding(75-r), bir(76-r), lil(77-r), fi(79-r), din(79-r), ding(80-r), qil(84-r), iy(81-r), til (82-r), bir(82-r), ning(83-r), ding(83-r), li(86-r), fin(86-r).

Jami:75 ta

b) g'azalda qisqa "i" unlisining o'qilishi holatlari.

-zi(1-r), bi(6-r), li(12-r), li(14-r), li(16-r), qi(26-r), ki(29-r), g'i(30-r), si(31-r), di(34-r), si(36-r), si(38-r), ni(39-r),ti(43-r), ki(44-r), g'i(47-r), ish(56-r), si(60-r), ki(69-r), ki(78-r), fi(79-r), si(82-r), ti(85-r), qi(87-r).

Jami:24 ta

- "u" unlisining o'qilish holatlari.

a)cho'ziq o'qilishi holatlari

hus(1-r), nung(1-r), hu(2-r), shub(3-r), mush(10-r), kul(10-r), rur(11-r), rur(13-r), gul(19-r), kul(22-r), rur(28-r), sun'(29-r), ung(29-r), ul(30-r), gu(35-r), nun(36-r), gu(37-r), guz(39-r), gul(41-r), bul(43-r), bul(43-r), zung(45-r), gul(47-r), uz (48-r), muz(52-r), lur(54-r), gul(59-r), lur(63-r), tuz(66-r), dung(66-r), mun(69-r), ush(77-r), lur(87-r), gup(87-r), rur(88-r), bul(23-r).

Jami: 36 ta

b) "u" unlisining qisqa o'qilishiga misollar

zu(2-r), tu(3-r), bu(5-r), du(11-r), chu(20-r), u(22-r), bu(24-r), qu(25-r), ru (28-r), gu(32-r), u(46-r), gu(86-r). Jami: 12 ta

- "a" unlisi.

a)"a" unlisining cho'ziq shakli

har(3-r), sav(4-r), sav(5-r), lar(5-r), la(6-r), kav(6-r), nay(6-r), g'av(8-r), mas(11-r), pay(16-r), man(21-r), dar(21-r), shay(24-r), g'a(25-r), gah(25-r), zar(26-r), gah (26-r), da(30-r), fat(31-r), ga(33-r), ak(35-r), gar(50-r), da(51-r), Maj(36-r), da (38-r), ak(38-r), gar(39-r), Lay(40-r), char(42-r), gar(45-r), da(47 -r), gar(50-r), da(51-r), mar(52-r), bas(53-r), la'(53-r), Far(54-r), par(57-r), sham'(58-r), gar (59-r), mas(60-r), par(61-r), ra(62-r), hat(65-r), sar(66-r), qad(67-r), lar(67-r), la(70-r), ay(71-r), at(73-r), na(76-r), ham(76-r), har(78-r), hal(79-r), qay(79-r), an(80-r), qay981-r), la(82-r), ham(83-r), kan(85-r), jan(85-r), nat(85-r), vas (86-r), da(87-r).

Jami: 66 ta

b) "a" unlisining qisqa talaffuziga misollar

ga(4-r), da(8-r), ba(10-r), va(15-r), cha(17-r), ga(18-r), ta(19-r), sa(21-r), ga (23-r), ma(48-r), ka(49-r), a(50-r), la(51-r), ma(52-r), ja(57-r), ta(58-r), na(62-

r), xa(64-r), ma(65-r), la(66-r), ma(68-r), a(71-r), la(72-r), qa(73-r), da(74-r), za(75-r), da(77-r), la(80-r), Na(81-r), ba(84-r).

Jami: 30 ta

- “O” unlisining cho’ziq va qisqa talaffuziga misollar.

a)”o” unlisining cho’ziq talaffuziga misollar.

o’t(20-r), o’t(22-r), bo’l(33-r), ko’z(35-r), kuz(37-r), ko’r(39-r), qo’(42-r), o’t(62-r), go’(88-r).

Jami: 9 ta

b)”o” unlisining qisqa o’qilishiga misollar

lo’(54-r), o’(59-r), o’(63-r).

Jami: 3 ta

- “e” unlisi.

a)cho’ziq o’qilish holatlari.

se(10-r), le(15-r), dek(21-r), be(34-r), dek(36-r), er(60-r), zeb(69-r), ze(72-r).

Jami: 8 ta

b)qisqa o’qilish holatlari.

se(9-r), e(13-r), e(28-r), ne(33-r), ne(41-r), ne(53-r), ne(61-r), se(83-r), e(88-r)

Jami: 9 ta

- “O” unlisi.

a)cho’ziq o’qilishiga misollar.

do(4-r), do(5-r), bo(7-r), zo(7-r), g’o(8-r), top(9-r), moq(9-r), top(11-r), g’o(12-r), son(12-r), do(13-r), hon(14-r), hon(15-r), do(16-r), o(17-r), o(18-r), sol(20-r), bot(23-r), do(24-r), moq(26-r), g’or(27-r), on(28-r), bo(29-r), bor

(30-r), no(32-r), o(34-r), ro(34-r), lo(40-r), Vo(44-r), zo(46-r), bo(46-r), och(47-r),ro(48-r), lo(49-r), ho(54-r), qon(55-r), xo(56-r), ro(56-r), mo(57-r), ton(60-r), vo(61-r), so(63-r), o(64-r), so(64-r), lo(65-r), qo(67-r), doq(69-r), bo(72-r), no(73-r), vo(75-r), qo(78-r), qo(80-r), vo(81-r).

Jami: 53 ta

b) qisqa o'qilishiga misollar.

o(42-r).

G'azal matnida "o" va "a" almashinuviga misollar.

qizarmoq-qizormoq

sarg'aymoq-sorg'ormoq

g'avg'o-g'ovg'a

G'azallarda lab garmoniyasi hukmron bo'lgan quyidagi so'zlarni ajratish mumkin: husnung, tushub, mushkuldurur, sun'ung, yuzung, tuzdung;

Lekin lab garmoniyasi qat'iy qonuniyat bo'lmay, uning buzilish holatlari ham oz emas, chunonchi: qilsun, qilurda, erur.

Asar Navoiy davrida tanglay garmoniyasi amalda bo'lganligini ko'rsatib turibdi. Shuning uchun jo'nalish kelishigi –ga va –g'a shakllariga ega. Kimga, kulga, otashgahiga, ishga – yumshoq, quyoshg'a – qattiq talaffuz qilanadigan jo'nalish kelishigiga misol bo'la oladigan shakllarni keltirishimiz mumkin.

Paydoliq'ing, topmaslig', pinhonlig'ing, sarg'armoqliq' – qattiqlik jihatidan farqlanuvchi "g" ishtirokidagi so'zlar.

ko'rguzmak – yumshoq

III.2 G'azallar asosida eski o'zbek tilining morfologik xususiyatlari

G'azalda hozirgi o'zbek tilidan farqlanadigan morfologik ko'rsatgichlar sanoqlidir. Bularni devonning 2-g'azali ("Zihi husning...")da qo'llanilgan tartibda ko'rsatish mumkin:

1. Chiqish kelishigining –din shaklida qo'llanishi:

- 1) zuhuridin (1-bayt);
- 2) guldin (3-bayt);
- 3) o'tdin (3-bayt);
- 4) ondin (4-bayt);
- 5) nedin (6-bayt);
- 6) o'tidin (6-bayt);
- 7) yuzungdin (6-bayt);
- 8) nedin (7-bayt);
- 9) yoshidin (7-bayt);
- 10) partavidin (8-bayt);
- 11) nedin (8-bayt);
- 12) harfidin (10-bayt).

2. Kesimlik qo'shimchasining –durur shakli.

- 1) mushkuldurur (2-bayt).

3. So'roq olmoshining ne shakli.

- 1) ne (5-bayt);
- 2) nedin (6-bayt);
- 3) nedin (7-bayt);

4)nedin (8-bayt).

4. Tushum kelishigining –n shaklida ishlatilishi.

1)o'zin (8-bayt);

2)qomatin (9-bayt);

3)dalilin (10-bayt);

4)vasfin (11-bayt) .

Qolgan qo'shimchalardagi hozirgi o'zbek tilidan farqli xususiyatlari –ib o'rnida –ub, -ing o'rnida –ung , -ga o'rnida -g'a morfologik xususiyatlar bilan bog'liq bo'lmay , fonetik singarmonizm bilan bog'liqdir.

III. 3. G'azallar asosida eski o'zbek tilining leksik vasintaktik xususiyatlari

G'azalning sintaktik xususiyatlaridagi o'ziga xoslik poeziyaga xosbo'lgan xususiyatdir. Bular: inversiya va gap kesimini sifatdosh shakllari bilan almashtirish holatlaridir. Bu hodisa, ayniqsa, G'ani Abdurahmonov tomonidan "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" (6,76) kitobida batafsil yoritilgan. Chunonchi bir bayt me'yoriy nopoetik nutqda sintaktik qurilishda quyidagicha bo'lishi lozim edi:

«Husningning ko'zga tashlanib ko'rinishi sababli har kimda bir xayol paydo bo'ldi. Bu fikr-xayollar bilan ikki olam bozorida yuz g'avg'olar bo'ldi». (6,76)

Inversiya holatlarini asardagi har bir bayt va har bir misrada ko'rish mumkin. Asardagi o'ziga xos xususiyatlardan biri bir baytni odatda bir gapga tenglashtirishdir. Bunday holatni birinchi baytni o'zidayoq ko'rish mumkin: tushdi fe'li o'rnida tushub ravishdosh qo'shimchasidan foydalanilgan (30, 65).

1-g'azalning leksik xususiyatlari (O'z va o'zlashma qatlam)

Azal –arabcha

Anvorul-xudo-arabcha

Atshon- arabcha (tashna)

Vahdat-arabcha(birlik ,yakka yagonalik,tanholik)

Dayr – arabcha(butxona,mayxona)

Devona –forscha (hushdan ajralgan,aqldan ozgan)

Jom – forsha (qadah,may piyolasi)

Zarf –arabcha(may quyiladigan idish)

Ibtido –arabcha(biror yangilik chiqarish)

Ism – arabcha(nom,kishi oti)

Lafz –arabcha(so'z,pg'zaki so'z,ifoda)

May –forscha (ichkilik,boda)

Masallik –arabcha(o'xshash)

Maqsud –arabcha(maqsad,istak)

Mahv – arabcha(yo'qolish)

Nafy –arabcha(rad etish)

Naqsh –arabcha

Nido –arabcha(qichqiriq)

Nisor –arabcha(sochish)

Tashnalab –forscha(tashna,chanqoq)

Fido –arabcha(qurbon,bag'ishlash)

Xush-forscha(yaxshi)

Chehra –forscha (yuz,bet)

Shams –arabcha (quyosh,oftob)

Hamul –arabcha(sabr,chidam)

2- G'azalda 159 so'z ishtirok etib, 118 ta so'zdan foydalanilgan. Bu Alisher Navoiyning yuksak san'atkorligidan dalolat beradi. 118 ta so'zdanhozirgi maktabxon uchun notanishlari 22 ta. Bu so'zlar va ularning lug'aviy ma'nosi quyidagicha (g'azalda qo'llanilish tartibiga ko'ra):

1. zihi - sababli (bog'lovchi)

2. zuhur - ko'rinish, paydo bo'lish(ot)

3. savdo - fikr, o'y-hayol(ot)

4. kavnayn - ikki olam(ot)

5. otashgoh - o'txona(ot)

6. samandar - afsonaviy qush(ot)

7. sun'(ung) - yasash, yaratish

8. uzor - yuz, chehra(ot)

9. muzmor – yashirin(ravish)

10. xoro – qattiq tosh (ot)

11. partav – nur(ot)

12. gulsiton – yorug'(sifat)

13. xaliloso – Ibrohim payg'ambar

- 14. malohat – yoqimli(sifat)
- 15. sarvqad – uzun bo'y(sifat+ot)
- 16. zeb –ziynat(ot)
- 17. zebo – go'zal(sifat)
- 18. inzavo – cheklanish(fe'l)
- 19. xalq – yaratmoq(fe'l) 20. qoni' – qanoat qiluvchi(ot)
- 21. hamd – maqtov
- 22. vasf – ta'rif

Asarda shaklan hozirgi o'zbek tilida mavjud bo'lib, ma'no jihatidan tubdan farqlanuvchi so'z – savdo so'ziginadir. Bu so'z hozirgi o'zbek tilida savdo-sotiq ma'nosida qo'llanilsa, Navoiy davri tilida fikr, o'y- xayol ma'nolarini anglatadi.

“ G'aroyib us – sig'ar ” devoni tarkibidagi 3-g'azal 9 bayt (18 misra) dan iboratdir. Jami so'zlar soni :109 ta.

G'azalimiz tarkibidagi o'z qatlam ya'ni turkiy tilga oid so'zlar quyidagilar: ey, o'lub, sanga, andoqki, topmoq, bilan, ko'rub, o'z, ayta olmas, oncha, yuz ming, bosh, oyoq, etib, o'lmasa, tamomi, qochmayin, oh, ko'p, yo'q, istar, muncha.Qolgan so'zlar o'zlashma qatlam ya'ni fors – tojikcha va arabcha so'zlar sanaladi. Hamd, fasohat, qurb, taqvo, toat, fikr, tahayyul, mahol, qusur, ro'zgor, hidoyat, lutf, jurm, ibodat, xijolat, umr.Qofiyaga olingan so'zlar quyidagilar: fasohat, toat, farosat, balog'at, kasofat, hidoyat, zalolat, ibodat, nadomat, xijolat.Qofiya tarkibidagi **raviy** (ya'ni – tirgak tovush) “ t “ tovushi hisoblanadi. Qofiyaning turiga ko'ra muqayyad qofiya sirasiga kiradi.

G'azallar leksikasi. Navoiyning juda ko'p so'zlarni ko'chma, metonimik, metoforik ma'nolarda g'azallarda qo'llagani haqida dalolat beradi. Chunonchi,

bozor soʻzini kavnayn bozori birikmasida – hayot tarzi, hayot tashvishlari maʼnosida;

otashgoh –otashdan, oʻtxona soʻzini chaman otashgahi birikmasida - hayot bogʻi maʼnosida beradi.

qizarmoq – uyalmoq;

sorgʻormoq – xafa boʻlmoq; ochinmoq;

gul soʻzi jannat guli birikmasida ishlatililib, eng oliy, goʻzal mavjudot maʼnosida; tikan – tuban narsa, jannat gulining antonimi sifatida ishlatilgan.

Alisher Navoiy badiiy sanʼatlarni namoyish qilishda leksik imkoniyatlardan oʻta unumli foydalanadi. “ Zihi husning...” gʻazalining 9 va 10-baytlaridagi zebo va qanoat soʻzlaridan unumli foydalanib, qalb sanʼati asosida hayratangiz usullar bilan murakkab falsafiy maʼnolarni ifodalashi buning yorqin dalilidir. Chunonchi, Navoiy zebo soʻzining yozilishida ب (bez) – pardoz, ziynat soʻzi ا (alif) harfining yonida kelishidan yuksak sanʼat bilan foydalanadi. ا (alif) – goʻzal , sarv qad ramzidir. Shoir 9-baytda Haq ا (alif) day qadu-qomatning oʻz goʻzalligi bilan chegaralanmay, unga zebu-ziynat bagʻishlaganligi natijasida zebo boʻldi, Yaʼnikim, ابيز + از dan ابيز soʻzi hosil boʻlishini taʼkidlamoqda. “Zebo” – “ابيز” soʻzi zeb berilgan sarv qomat maʼnosida kelgan.

Xuddi shunday mahoratni buyuk mutafakkir 10-baytda ishlatib, qanoat soʻzining maʼnosini ochib beradi, Arabchada qanoat “ق” hoyi hutti bilan yaʼni “ت” siz yoziladi: قانع va koʻp hollarda “qanoʻa” deb oʻqiladi. Qanoat – oʻzni tiyish, boriga shukr qilish demak. Inzavo – cheklanish , yashirinish, behuda tashvishlardan oʻzni chetga olish, huda-behuda ishga aralashmaslik degani.

Qanoat soʻzi ق ن ا ع va baʼzan oʻqilmaydigan ا harflaridan iborat. Xuddi ana shu harflar ا ق ن ع – (anqo) soʻzi tarkibida va ق ن ا ع (qoniʼ) – qanoat qiluvchi maʼnosidagi soʻzda ham uchraydi. Ushbu bayt bilan Alisher Navoiy qanoatlikning mohiyati huda-behudalikka aralashmaslik , oʻzni cheklashda deya taʼkidlamoqda.

“G’aroyib us- sig’arda”gi beshinchi g’azal mavzu doirasiga ko’ra orifona g’azallar sirasiga kiradi. G’azalda qo’llangan so’zlarning ko’pchiligi arabcha va forsha so’zlar tashkil etadi. G’azaldagi umumiy so’zlar soni: 61 ta so’z qo’llangan.”Kirdigoro so’zi g’azalda 2 marta ya’ni matla va maqtada qo’llangan.

Umuman olganda, Alisher Navoiy ushbu g’azallari bilan so’zdan unumli foydalanishning yuksak mahoratini namoyish eta olgan. Har bir so’zni chertib ishlatish mahoratini Navoiydan o’rgansak arziydi. Shundagina so’zlar o’z ichki va tashqi ma’nosini yo’qotmay, salmog’i oshib boradi.

IV Bob. G’AZALLARDA BOTINIY MA’NOLAR TIZIMI VA SO’ZLARNING RAMZIY-MA’RIFIY MA’NOLARI

IV.1 G’azallarda botiniy ma’nolar tizimi

G’azal Sharq she’riyatini dunyoga tanitdi. O’zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondalari Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy va boshqa shoirlarning ijodlarida g’azal asosiy janr bo’ldi. XV asrga kelib o’zbek g’azaliyoti Alisher Navoiy nomi bilan bog’liq holda kamolot cho’qqisiga chiqdi. Ulug’ shoir o’zbek g’azalchiligini rivojlantirishda Sakkokiy, Atoiy, Lutfiyning ijodiy yutuqlariga suyandi. Fors-tojik adabiyotining uch buyuk vakili Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiyning g’azaliyotidan keng ko’lamda saboq oldi va Alisher Navoiy o’z devonlarining boshqa ijodkorlar devonlaridan to’rt jiddiy farqini "Badoe’ ul-bidoya"ning debochasida sanab o’tadi. O’sha qaydlarning ikkinchi va uchinchlari bizning tadqiqotimizga bevosita daxldordir, ya’ni "avval bitigan g’azal uslub xususiyati" va "har harf g’azaliyotining avvalgi g’azali Tengri taolo hamdi bila

muvasshah, yo rasul alayhissalom na`ti bila mufattah, yo mav`iza bila muvazzah" qilinganligidir **.(63,66)** Kuzatishlarimizdan ko`rinib turibdiki, har harf turkumining dastlabki g`azalini hamd bilan boshlash Sharq mumtoz adabiyotida Alisher Navoiy nomi bilan bog`liq an`anadir. Qolgan barcha turdagi hamdlar esa Navoiyga qadar ham mavjud edi. Navoiyshunos olim Maqsud Shayxzoda ta`kidlaganidek: "Buyuk Navoiy o`z davrida tor lirikaning imkoniyatlari cheklanganligini sezgani uchun bu an`anaviy qafasni sindirmoqchi bo`lib, lirikaning tematik va g`oyaviy sarhadlarini kengaytiradi".**(95,45)**

“G`aroyib us-sig`ar” devonidagi 1-raqam ostida turgan (“Ashraqlat min..”) g`azalining botiniy ma`nolarini berishga harakat qildik. Bu g`azal mavzusining tasavvufiy ekanligi bilan farqlanib, unda haqiqiy ishq – komil inson muammolaridan falsafiy mushohoda yuritiladi. Shuning uchun an`anaviy g`azallarda bo`lgani kabi mashuqa sochi ,qoshi ko`zi ... ham yoki uning bevafoqligi kabi tasviriy vositalar ko`rinmaydi.

Mazkur g`azalda yangi timsollar va ular bilan bog`liq tasvir vositalari qo`llangan: jomi ,may,kongil jomi,sing`on spool,chehrayi maqsud,vahdat mayi,azal soqiysi kabi timsollar... .” Jom va may “iyhom san`atida qo`llanib, ular zohiriy ma`nodagina emas, yana boshqa – botiniy ma`noda ham ishlatilganligini Navoiyning o`zi alohida ta`kidlaydi:” Sen gumon qilg`ondin o`zga jomu may mavjud erur” .Buni Navoiy butun g`azal davomida chiroyli yoritib bergan.

Birinchi baytdagi “ quyosh kosasi aksi” iborasi orqali quyoshning Alloh taolodan poklik nurlarini olishi va u nurlarning kosasi ko`zgusida aks ettishi ma`nosi singdirilgan, quyoshdan kelayotgan ana shu hidoyat – yo`lboshchilik qiluvchi ilohiy nurlarda esa yorning aksini ko`rmoqchi bo`lsang uni mayday ko`r deb jomdan nido keldi. Bu bayt husni matla` bo`lib, unda shoir butun g`azalda ifoda etmoqchi bo`lgan fikr qaymog`ini bayon etgan hamda “jom va may” o`zga – botiniy ma`nosini ham ochib bergan.

G'azalda olamning ilohiy mohiyati va buni anglagan inson zavqu shavqi, qalb sururi ifodalangan. Hududsiz bu olam Yakkayu yagona Allohning tajalliy nuri bilan barhayot, munavvar va jozibali. Ushbu nurning Quyosh ko'rinishida beqiyos ne'mat bo'lib, har sahar porlashi, barcha jonzotlar, jumladan, Inson qalbini shodlikka limmo-lim etishi ayon haqiqat. Lekin Quyosh ham bir timsol, bir tashbeh, xolos. Ilohiy haqiqat, tajalliy bundan-da ulkan, u jami borliqni, jumladan, quyoshni ham qamrab oladi. Bu haqiqatni orif inson, piri komil anglab yetadi. G'azalda jom va may istilohlari boshdan oxirigacha bir – biri bilan bog'liq, ammo xilma-xil talqinlarda davom etadi. Jom moddiy dunyo may esa Yorning tajalliysini aks ettiruvchi va unga bog'langan ko'ngil ishq tug'yonini anglatuvchi timsollar ekan, bunda uch ma'no bir-biri bilan bog'liq holda zuhur etadi: 1) ilohiy nur jilosi; 2) dunyo; 3) inson qalbi. Inson agar faqat dunyo tashvishlari bilan bog'lansa, u Ilohiy nurdan bebahra qoladi. Holbuki, insonning oliy maqsadi – o'z Asliyatini idrok etish va unga qaytishdir. Shu bois u ko'ngil kirlarini yuvib, uni Alloh nuri aks etgan jomga aylantiishu lozim, chunki ana shu darajaga yetgan odam dunyoning o'zi Alloh jamoli aks etgan mazhar va jom ekanini anglab yetadi. Shunda inson o'zini qudratli his qiladi, va faqir, hoksor bo'lsa ham bu muhabbat otashida pishib, podsho Jamshiddan kuchliroq sezadi. Bunda bir rivoyatga ham ishora bor: shoh Jamshid mayni ixtiro qilgandan keyin, donishmandlar ko'magida bir jom yasatgan ekan, agar unga may to'ldirilsa, butun olam va uning voqea – hodisalari aks etar ekan. Jamshid butun olamni shu jomda ko'rib turar ekan. Alisher Navoiy shu rivoyatlarga ishora qilib, birinchidan, orif inson qalbi ham olamni va ilohiy tajalliyni ko'rsatadigan ko'zgudir, chunki Ishq, ilohiy sirlar, hikmatlarga to'la degan g'oyani ifodalasa, ikkinchidan, darveshning siniq ko'ngli (sing'on sofol) Jamshid kabi shohlar qadahidan ham e'tiborliroq, qimmatliroq bo'lib, ayni shu "siniq ko'ngillar" Iloh nurini aks ettirib, dunyoni ko'rsata oladi, degan fikrni bildiradi.

Navoiy Ilohiy tajalliy bilan moddiy olam insonda birlashgan degan vahdat ul vujud talimoti g'oyasini olg'a suradi. May va jom orasida shunday bir Yagonalik hosil bo'ladiki, qaysi dunyo, qaysi iloh ekanligini ajratish mumkin bo'lmay qoladi.

Shundan keyin shoir darveshlar tilga oladigan “may”, “mayxona” soʻzlarini tushunmay, ularni muzammat etadigan zohirbin, maʼnolar siridan bexabar zohidni tanqid etadi va Qurʼon oyatiga ishora qiladi. Bu oyatda Muso paygʻambar oʻz qavmini Misrdan olib chiqib ketayotganda, qavm Musoga chanqoqlikdan nolib murojaat qiladilar. Shunda Musoga “Hassangizni qoyaga uring” degan vahiy keladi. Parvardigorning bu mujdasini eshitgan Muso hassasini qoyaga urganda buloq paydo boʻlib, shrqirab suv oqadi... Yaʼni Alloh qudratining chek – chegarasi yoq, olam Uning nuri bilan toʻliq ekan, buni anglash, bunga yetishish va moddiy hayot bilan maʼnaviy hayotni fayzli, mazmunli qilishga intilish lozim, degan gʻoya Navoiy gʻazalining magʻzini tashkil etadi.

Ushbu gʻzalda yetakchi sanʼat mulamma (birinchi misra va maqtaʼdagi oxirgi misraning bir qismi arab tilida, qolganlari esa oʻzbek tilida) dir. Ikkinchi baytdagi gʻayr naqshi, koʻngul jomi, zangigʻam, mayi vahdat kabi iboralarning tasavvufiy mazmunni ifoda etish uchun ishlatilganligi, ulardagi oʻxshatish, sifatlash, istiora va ihom larning ham shu maqsadga boʻysindirilgani eʼtiborga loyiqdir. Uchinchi baytda talmeh (Jamshid), tavsif (singʻon sofol), tashbeh (jom-getinamo, gado-Jamshed), iymom (may) kabi badiiy tasvir vositalari mahorat bilan ishlatilgan. Yakuniy toʻqqizinchi baytda esa taʼbir badiiy sanʼatidan foydalanib, Alloh taolo tomonidan nozil qilingan “ishrabi yo ayyuh al-atshon” (vahdat mayidan ichgil, ey tashnalab) oyatini dalil keltirib, oʻzini ham va boshqalarni ham bundan bahramand boʻlib, komil inson boʻlish uchun intilishga chorlaydi. Demak, buyuk mutafakkirning oʻz soʻzlariga koʻra ilk gʻazallarning hamd yoki naʼt mazmuniga ega boʻlishligi talabiga koʻra bu gʻazal ham hamd yoki naʼt mazmuniga ega boʻlmogʻi kerak. Haqiqatan ham, gʻazal hamd mazmuniga ega boʻlib, unda bevosita Haqqa murojaat qilinib, uning qudrat va sifatleri tarannum etilgan.

“Hamd” soʻzi “Alisher navoiy asarlari tilining izohli lugʻati” da maqtov, madh deb berilgan. **(55,205)** Islomiy aqidaga koʻra esa maqtov faqat va faqat Ollohgagina loyiq, unigina maqtash mumkin va kerak. Shundan ham maʼlum boʻlib turibdiki, bevosita Olloh taʼrif va tavsif etilgan gʻazallar hamd gʻazallar

deyiladi. Hamd gʻazallarning aksariyatida shoir Olloh kulli mavjudotning yaratguvchisi ekanligini badiiy til bilan taʼriflaydi.

XV asrning birinchi yarmida – Mirzo Ulugʻbek zamonida samarqandda ijod qilgan adabiyotshunos Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy “Finun ul-balogʻa” asarida lirik janrlarning oʻntasi (qasida, gʻazal, qatʻa, ruboiy, masnaviy, tarjeʼ, musammat, mustazod, mutavval, fard) ni sanaydi-da, keyin sheʼrlarning tasvir manbai (obekti) va mavzuga koʻra turlarini qayd etadi: “Bu oʻn navʼ sheʼrkim, zikr qilduk, har qaysida agar Tengri azza va jallaga hamd aytsalar, oni tavhid derlar. Va agar Muhammad mustafo alayhi-s-salom vas-salom vasf qilsalar, naʼt derlar. Agar Tengri hazratida tazarruʼ, munojot oʻqurlar. Va xulofayi roshidinni taʼrif qilsalar, manqib va manqabat derlar agar solatin yo umaro yo vuzaroni oʻqisalar, madh va madhat va tamadduh oʻqurlar. Va agar oʻlgan kishini zikr qilsalar, marsiya derlar. Agar kimarsani nafrin qilsalar, hajv va mazamma derlar. Va gar hazl qilsalar, mutoyiba derlar”. **(78,95)**Bu parchadagi biz uchun eng kerakli nuqta – hamddagi munosabat. Olim munojot ham bor. Ularda lirik qahramonning tazarrusi bayon etiladi.

Navoiyning dostonlarida ham, gʻazallariga ham naʼtdan oldin avval tavhid, soʻng munojot kelgani, munojotda ham bevosita Ollohga murojaat birinchi oʻrinda turganidan kelib chiqib, bizningcha, tavhidni ham, munojotni ham hamdning turlariga qoʻshish kerak. Bir qarashda, Olloh butun borliqning yaratguvchisi ekanligi hammaga ayon bir gapdek turlishi mumkin. Lekin Navoiy uchun bu shunchaki masala emas edi. Boshqacha aytganda, shoir dunyoqarashining magʻzi bevosita xuddi ana shu tushuncha bilan chambarchas bogʻliq.

Demak, nainki olam, nafaqat, balki narsa ana oʻsha yaratguvchiga boʻysinish zarur. Adabiyot uchun muhim va eʼtiborli jihati shundaki, aqidaga koʻra, Olloh tobelaridan yomonlik kutmaydi. Chunki Tangri oʻziga qaramlik uchun yomonlik qilishni emas, pok – yaxshi yoʻldan yurishnigina ravo koʻradi.

Demak, tavhid, ya'ni Ollohning yagonaligini his etib yashash targ'ibi Navoiy falsafasining asosiy g'oyalaridan hisoblanadi. Shu sabab shoir g'azallarni shunchaki rasmiyat, devonlarini an'anaga muvofiq to'ldirish uchun yozgan emas.

Navoiy uchun falsafiy e'tiqod, nazariy dunyoqarash vazifasini o'tgan tasavvuf, xususan, uning naqshbandiya tariqati talablari ham shuni taqozo etar edi. Binobarin: "Naqshbandiya mumtoz tariqatlarining oxigichi va shuning uchun unda butun tasavvuf tariqatidagi eng ijobiy tomonlar o'z aksini topgan".(24,57)

Yana ham muhim jihati shuki, bu dunyodagi mavjudotning bari Ollohning mavjudligiga isbot. Chunki bu borliq – Olloh, ya'ni zotning u yoki bu tarzda ko'rinishlaridan iborat.

Agar asosiy maqsad Ollohning sifatlarini ta'riflashdan iborat bo'lsa, bunday g'azal "tavhid" deyiladi. "Tavhid" so'zi – "vohid" bilan bir o'zakdan yasalgan. "Vohid" esa yagona, yakka-yolg'iz, bir degan ma'nolarni anglatadi. Demak, Xudoning yakka-yagonaligi, biirligini, yolg'izyaratuvchiligini ta'rif – tasnif etish va bu yagonalikni anglash, idrok etish tavhid bo'ladi.

Bu 11 baytdan iborat bir qadar katta g'azal. Chunki shoir ijodida 7 va 9 baytli g'azallar ko'proq uchraydi. Ushbu g'azalning misralari ham – uzun – uzun, ya'ni 16 hijoli, hajazi musammani solim vaznida: mafoiylun mafoiylun mafoiylun. Navoiy g'azaliyotida bunday hajmdagi g'azal kam uchraydi. Aynan shu ikki shakliy jihat g'azalga alohida salobatli ruh bag'ishlagan. Bu esa badiiy jihatdan Ollohning og'ir – bosiq, vazmin kayfiyat bilan madh madh etilishini ta'minlagan.

G'azalni baytma – bayt tahlil etishni ma'qul topdik.

Matla' mazmuni: *"Go'zal husning ko'rishidan har kimga bir savdo tushib, bu savdolar bilan ikki olam bozorida yuz g'avg'o ko'tarildi"*.

Bu baytda Olloh husnining ko'rinishi (zahuri) orqali har kimga bir savdo tushgani, bu savdolar bilan esa ikki olam (kavnayn) bozorida yuz g'avg'o boshlagani aytiladi. Bu bilan shoir oamlarning ham, odamlarning ham yaratilishi

bevosita ana shu Ollohning zuhuri ekanini ta'kidlab, vahdat ul – vuju falsafasini eslatib o'tadi. Savdo so'zi birinchi misrada ishq ma'nosida kelgan edi, lekin shunga mutanosib ravishda ikkinchi misrada undan bozordagi oldi – sotdi ma'nosida foydalaniladi.

Ikkinchi bayt mazmuni: “Seni topish juda mushkul, topmaslik (esa) oson, (chunki) paydolinging pinhon-u, lekin pinholiging paydo”.

Ba baytda ajoyib tazod orqali shoir Ollohni topish juda mashlulligiyl topmaslik osonligini, shuningdek, uning paydologi pinhonu pinhonligi esa paydolini ta'kidlaydi. Qo'shmisrada ikkita ochiq tazod mavjud. Mushkul – oson, pinhon – paydo. Shoir birinchi tazodni qo'llashda qiyinlikni (mushkulni) tasdiq shaklidagi (topmoq), qulaylikni (osonni) inkor shaklidagi (topmaslig') fe'l bilan ishlatgan. Shundan uchinchi bir tazod ham yuzaga kelganda, deyish mumkin. Ikkinchi misrada esa tardi aks san'atini qo'llab yuboradi (paydoling'ing pinhon – pinhonlig'ing paydo). Bu g'azalning ikkinchi baytida Ollohning ikki sifati paydolik va pinhonlik tilga olingan. Olloh yaratgan barcha narsalarni ko'rib, uning borligiga (paydoligiga) imon keltiramiz, ammo qancha fikr, aql, tafakkur bilan intilsak ham uning zotiga eta olmaymiz. U pinhonligiga va sirliligicha qolaveradi.

Ollohning ham pinhon, ham paydo ekani Navoiy o'zi to'qigan talqin emas. Bu “Qur'on”iy talqin. Uni hamd yozgan boshqa arabiy, forsiy va turkiydan bu bayt, ko'rib o'tganimizde, tamoman oxiriylik, o'ziga xos ifodaviy tasviriy go'zallik kasb etgan.

Uchinchi bayt mazmuni: “*Chaman o'txonasiga yonib turgan guldan o't solganing bilan (xuddi) samandardek shu olovdan shaydo bulbul kulga botdi*”.

Ushbu baytda zimdan gul shoxlari bilan birga bulbul ham o'tga tushgani bildirib o'tilgan.

To'rtinchi bayt mazmuni: “Nima ish berdi-yu, majnun ko'zgu aksidek beorom bo'ldi, yuzing ko'zgusida Laylo o'z aksini ko'rsatmadi”.

Baytda shoir qo‘lda ushlab turilganda, ko‘zgu qimirlab, unda ko‘rinib turgan kishi xuddi beorom holga tushgandek bo‘lishini nazarda tutgan.

Majnun ne ishga ko‘zgu aksidek beorom bo‘lmasin (bu erdagi beoromsifatida qo‘lda tutib turilgan oynaning qimirlab turishiga ishora mavjud). Laylo uning yuzi ko‘zgusida o‘z aksini ko‘rsatmadi, deyiladi. Majnun bilan Layloning eslashini talmehsan’atini vujudga keltirgan.

Beshinchi bayt mazmuni: “Quyosh nega goh qizarib, goh sarg‘ayishi sening sun’ing (yaratilishing) bog‘ida yuz ming (rangdagi) ra’no gul borligidan”.

Mazkur baytda oldingi qo‘shmisradagi ko‘zgu timsolidan foydalanilgan – Quyosh ham go‘yo bir oz ko‘zgu yanglig‘ tasavvurga keltirilyapti, u har xil ra’no gullarni aks ettirgani uchun ham bir qizarib, bir sarg‘ayadi. Quyosh nega bir qizarib, bir sarg‘ayadi, chunki olloh yaratgan bog‘da ham sariq, ham qizil rangli yuz ming gul borda.

Oltinchi bayt mazmuni: “Agar yuzingdan yuzi bog‘ida Azro gul ochmagan bo‘lsa, nima uchun ishq o‘tidan Vomiq bulbul kabi yuz gul ochadi”.

Bu baytda ham talmehyo‘li bilan mashhur oshiq – ma’shuqlar – Vomiq va azro tilga olinadi.

Etтинchi bayt mazmuni “(Ey Olloh) agar kalomingni Shirin labida maxfiy etmagan bo‘lsang, nima sababdan Farhodning qon yoshidan tosh la’ldek (qip-qizil) bo‘ladi?”

Talmehdan foydalanish ushbu baytda ham davom etadi – SHirin va Farhod tilga olinadi.

Sakkizinchi bayt mazmuni “Agar jamolingning nur taratishidan sham o‘ti gulistonga aylamagan bo‘lsa ham, nima uchun parvona Halil kabi o‘zini o‘t ichiga uradi?”

Bu yerda Halil bevosita Ibrohim alayhissalomni anglatadi.

To‘qqizinchi bayt mazmuni: “Sarvdek tik qomatlilar qaddini malohat bilan tuzding, ya’ni shunday zeb bilan u alifni bezding”.

Baytda Tangrining sarv daraxtidek tik vomatlilarni malohat bilan yaratganni tilga olib, shunday zeb berish bilan alifni chiroyli qildiing, deyiladi.

Bu yerda harfiy san’at ham ishga solinadi. Chunki bu misralar mohiyatiga etish uchun o‘quvchi “alif” harfining tik yozilishini ko‘z oldiga keltirilishi kerak.

O‘ninchi bayt mazmuni: “Qanoating dalilini yana bir bor go‘shanishin qilding, unga ushu dalil borki, kone’ so‘zlaridagi harflardan “anqo” ni yasading”.

Bu g‘azaldagi “begona” bayt. Mumtoz she’riyatimiz an’anasiga ko‘ra, begona, ya’ni maqta’dan oldingi baytda shoir g‘azal umumiy mazmunidan bir oz chetga chiqibroq mulohaza yuritish huquqiga ega(52). Avvalo, shuni aytish kerakki, arabi “qone” so‘zi bilan “anqo” bir xil harflar asosida yoziladi, faqat so‘zda ishtirok etgan harflarning joylarida farq bo‘ladi, xolos. Bu erda muallif zimdan so‘fiylarni ham ko‘zda tutayapti. Chunki tasavvuf ahllari uchun qone’, ya’ni qanoat – birlamchi talablardan va go‘shanishinlik ham ularga xos xususiyat.

O‘n birinchi bayt, ya’ni maqta’ mazmun: *“Navoiy qaysi til bilan sening hamding bayon qilsinki, (axir) tikan jannat gulini vasf qilishda go‘yo go‘ng bo‘lib qoladi-ku”*.

Maqta’da shoir g‘azalning hamd ekanini ochiq bildirib o‘tishni lozim ko‘radi. G‘azalning oxirida Olloh madhida har qancha ta’rif – tavsiflar qilinmasin, shoirning, xuddi tikan jannat guli ta’rifidagi go‘ng bo‘lganidek, hamisha so‘z topa olmay, lol qolaverishi e’tirof etilgan.

Ko‘rinib turibdiki, Olloh sifatleri g‘azalning umumiy ruhiga singdirilgan holda ochib berilayapti. Har bir sifatning isboti uchun esa badiiy – mantiqiy dalil – isbotlar ham keltirilgan.

Shoir tavhid ham g‘azalda ham ana shu qarashiga sodiq qoladi. Yuqoridagi baytda buning isbotini ko‘ramiz. Dunyodagi barcha yaratilgan narsalar (maxluqot)

sening sifatlaring, ya'ni xususiyatlaringni aks ettiradi, deydi shoir, bu narsalar senda batafsil (keng, mufassal).

3-gʻazal ham Alisher Navoiyning hamd gʻazallaridan hisoblanadi. Biroq hamd gʻazallar ichida munojot ohangiga yoʻgʻrilgan va Qurʻon oyatlari mazmuni oʻziga xos tamsil va tashbehlarda boʻrtib ifodalanganlari ham bor. Ushbu gʻazal shunday xususiyatga ega. Chunonchi, matlaʼda, Alloh taoloning zamon va makondan tashqari, balki zamon va makonni qamrab oluvchi, uni yaratuvchi azaliy va abadiy Zot ekanligi, bu Zotning husn-u jamoli qudrati va yaratuvchanligi (soneʼ - sunʼ egasi ekanligi) taʼkidlanadi. Shundan keyin butun olam Allohga zikr aytishi, shukronalar qilishi, kecha va Kunduz, tong va shom, olam-u odam unga tobeligi tarannum etiladi. Ulugʻ shoir xudo qudratini toza, qalbga tasir etadigan tashbeh-tamsillar vositasida tarif etadi. Chunonchi, mashshota (yuzni pardalovchi) sanatkorligi Kunduz koʻzgusi kecha kuli bilan tozalab, jilolantirdi, deyish bilan kecha (tunni) kunduzsiz, kunni tunsiz tasavvur qilish juda qiyin. Parvardigor oʻzaro ziddlikni bir biriga bogʻliq qilib yaratgan. Bu-ilohiy hikmat: tunsiz kun, kunduzsiz tun chiroyli emas va but un boʻlmaydi. Kunduz munavvar shaklini xudoning mehriga, tunni uning oʻxshatgan ham, shu hikmat nazarda tutilgan. Tongda ikki xil xislat bor: birinchida u quyoshning chiqishi, kunduzning boshlanishidan darak bersa, ikkinchida, tong aldamchi hamdir yaʼni baza kun yorishganday boʻlsa ham aslida hali tun tugamagam boʻladi. Buni “yolgʻon tong” ham deganlar: “subhi kozib”. Navoiy shunga ishora qilib tongni nayrangboz deb ataydi. Tongni har lahza ogʻzidan olov chiqarib, odamlarni aldaydigan va ayni paytda hayratlantiradigan masxarabozga oʻxshatadi. Navbatdagi baytda ushbu tashbeh yana davom ettirilgan: tongning otishidan oldin yulduzlar osmonda yorqinroq koʻrinadi, bu goʻyo oʻt haroratidan masxarabozning ogʻzi kuyib lablari gardishida qavariqlar paydo boʻlgan kabidir. Keyingi uch baytda Tangri taoloning rizq beruvchilik, odillik sifatleri tarflanadi va butun mavjodod undan bahra olib unga intilishi aytiladi. Gʻazal mazmuniga koʻra “oshiqona gʻazal” turiga kiradi. Boisi gʻazalda oshiq, uning maʼshuqa ishq mavzulari yoritilgan. Aynan shu gʻazalning tuzilishi haqida gapiradigan boʻlsak, “yakpora gʻazal” sifatida olamiz. Chunki har

bir baytning mazmuni o'zidan oldingi va keying bayt bilan izchil bog'langan. Matla'da boshlangan mavzu maqta'ga qadar davom etgan. Maqtaning birinchi misrasida "Navoiy" taxallusi qo'llangan. Ushbu baytda shoir yorning jamoli azaldan kitobda bitilganligini ta'kidlamoqchi. Husni jamolida abadiy nuqta belgisi bo'lishi aytilyapti, ya'ni shoir nuqta belgisi deb yorning "xol" ini ifodalayapti. Ma'shuqaning ruxsori u yaratilishidan avval chizib qo'yilganligi, buni hech kim inkor qila olmasligi shoir tomonidan mahorat bilan tasvirlangan. Ushbu baytda tazod san'ati qo'llangan: azal, abad.

Zarrot aro har zarraki bor, zikringga zokir,

Amtor aro har qatraki, bor, hamdinga go'yo.

Ikkinchi baytda, oshiq yorning bu olamda tanholigi, yagonaligini va butun olam unga hamdu sano o'qishini nazarda tutyapti. Ya'ni zarralar ichida qancha zarra bo'lsa, (olamdagi barcha katta – kichik jonzotlar) ularning barchasi har so'zida seni tilga oladi. Go'yo yomg'irning har tomchisi kabi seni ko'p maqtaydi. Bu baytda ham ilohiy ishq kuylangan. Chunki Olloh yaratgan har bir banda uning nomini tilidan qo'ymaydi. Baytda tashbeh san'atidan mohirona foydalanilgan.

Mashshotayi sunungdurur ulkim, nafas ichra,

Kun ko'zgusin aqshom kulidin qildi mujallo.

Uchinchi baytda, u bir nafasda shunday pardozi berib yaratdiki, kun ko'zgusini oqshom kulidan tozaladi ya'ni, porloq ravshan qildi. Ushbu baytda yaratuvchining qudrati qay darajada shiddatli ekanligi, uning nimalarga qodir ekanligi ulug'lanyapti. Baytda mubolag'a san'atidan foydalanilgan.

Kun shakli yuzing sajdasidin bo'ldi mushakkal,

Tun turrasi qahring yelidin bo'ldi mutarro.

To'rtinchi baytda, kun shakli yuzining bir marta sajdaga egilishidan suratlandi, qora jingalak sochi g'azabining shamolidan tekislandi va tozalandi. Qora jingalak

soch majoziy ma'noda, albatta, ya'ni qorong'uda qilinadigan barcha rasvo ishlardan uning qahri kelib, hammasini tozlaydigan ham yolg'iz ollohdr. Bu baytda ham yaratganning qudrati tasvirlangan.

Sunung qilibon subhni ul nav mushabid,

Kim mehr o'tin og'zidin etar har nafas ifsho.

Beshinchi baytda, qudrating har kuni yangi tongni yaratadi, xuddi har nafas mehringni og'zingdan oshkor aylaganingdek. Bu baytda tashbeh san'ati qo'llangan, ya'ni har kungi yangi tong uning tabiatga, insoniyatga bo'lgan cheksi mehridir. U hech qachon so'nmaydi, borgan sari ortaveradi, xuddi har kuni yangi tong otganidek.

Go'yyiyoki kuyar og'zi ul o't hirqatidinkim,

Anjumdin o'lur obilalar girdida paydo.

Oltinchi baytda, go'yo og'zi olovni yondirishdan kuyadi, yulduzlar girdida chechaklar paydo bo'lganidek. Ya'ni, olovning kuydirishidan og'zining atrofida po'rsildoqlar paydo bo'ladi. Mehr olovidan shunchalar og'zi kuysa hamki, u baribir bizga mehr ulashaveradi. Bu baytda ham tashbeh san'atidan unumli foydalanilgan.

Muhtoj sening dargahinga xusravu darvesh,

Parvarda sening ne'matingga johilu dono.

Yettinchi baytda tazod san'ati shoir tomonidan juda o'rinli ishlatilgan. Shohu darvesh uning marhamatiga muhtoj ekanligi, Johil ham, dono ham uning ne'matidan tarbiya topganligi o'quvchiga uqtirilgan. Ya'ni, yaxshi ham, yomon ham u xoxlaganligi uchun yaxshi bo'ldi, yomon bo'ldi. Olloh nimaniki xoxlasa, shu narsa bo'lishi yana bir bor ta'kidlangan.

Gul yuzida bulbul sening asroringa notiq,

Sham o'tida parvona sening husnunga shayd

Sakkizinchi baytda, vaqt sening holingdan xabardorlargina sening sirlaring uchun notiqdir, sham o'tida parvona sening husningga shaydo bo'lganidek. Bu baytda ham tashbeh va tanosub san'atlari orqali ma'shuqaga yaqin bo'lishga ishora qilingan. Ya'ni qancha olloga yaqin bo'laverganing kabi unga yorug'likka intilgandek parvona bo'laverasan kishi.

Ushshoq aro, yo Rabki, Navoiyg'a maqome,

Bergilki, sening hamdinga bo'lsin tili go'yo.

Maqta'da shoir menga oshiqlar orasidan shunday o'rin berginki, bu tilim faqat seni maqtashi uchun. Shoir shunday deya iltijo qilar ekan, bu hol uning faqat ma'shuqa bilan birga bo'lishga ehtiyoji borligidan, usiz yashay olmasligidan va barcha qudrati uchun undan minnatdor, qarzdor ekanligidandir. Oshiqning yashashdan maqsadi faqat qodiri egamga hamd aytish.

Hazrat Alisher Navoiy bolalik yillarida yozilgan g'azallarini jamlab "G'aroyib us -sig'ar" nomi ostida birlashtiradi. "Iloho podshoho kirdigoro" misralari bilan boshlanuvchi g'azal devondagi beshinchi g'azal hisoblanadi. Ushbu g'azal an'anaviy 7 baytdan iborat. G'azallar mavzu doirasiga ko'ra 3 turga bo'linadi: rindona; oshiqona; orifona kabi turlarga bo'linadi. Bu g'azal orifona g'azallar sirasiga kiradi. Orifona g'azallarga xos xususiyat falsafiy, ta'limiy, axloqiy, tarbiyaviy g'oyalar yetakchilik qiladi, va bu g'oyalar g'azal misralari bag'riga singdirilgan.

G'azalning matlasida shoir "Ey yaratuvchi zot bu olamdagi barcha yashirin, pinhon narsalar senga ochiq va ayondir" deb ta'kidlaydi.

Xullas, Navoiyning tavhid g'azallariga shu va shunga o'xshash tasvirlar orqali bu odamlar, demakki, kulli badiiy bo'yoqlarda qalamga olinadi. Ko'pgina tavhid g'azallar va xilma - xil maqta'da lirik qahramon go'yo Navoiyni eslagan bo'lib, Ollohdan uning gunohlaridan o'tishini so'raydi. Bu esa munojotga xos xususiyat. Demak, hamd g'azallarni tavhid va munojot g'azallarga ajratishda

nisbiylik borligini esdan chiqarmaslik kerak. U shundan iboratki, qaysi jihat o'sha g'azal uchun ustvor bo'lsa, shunga tayaniladi.

IV.2 G'azallarda so'zlarning ramziy-ma'rifiy ma'nolari

Alisher Navoiy g'azallarining zulma'naynligi, unda zohiriy va botiniy ma'nolar silsilasi mavjudligi hech kimga sir emas. Bizning davrimizda bu masalalarga dastlab 20- asrning 20-30-yillarda buyuk adabiyotshunos Bertels shug'ullangan edi(14). O'tgan asrning 30-80-yillarida mumtozlarimiz asarlaridan ma'rifiy, diniy, falsafiy ma'nolarni izlash man etildi. Shuning uchun o'zbek adabiyotshunosligi Alisher Navoiyni kommunist va atsist sifatida talqin qildi. XX asrning 80-yillarida Alisher Navoiy asarlarida tasavvuf dunyoqarashining axis masalasi, g'azallarning botiniy zohiriy ma'nolari birin-ketin sharhlana boshlandi. Bunday masalaga yondashishlarning dastlabkisi Alibek Rustamovning "Shoirning birinchi g'azali" maqolasi bo'ldi. Maqola "Sharq yulduzi" jurnalining 1983-yil 3-sonida nashr qilindi. Olim unda Alisher Navoiy devonlaridagi, alxusus , "Badoyi' ul-bidoya" , "G'aroyib us-sig'ar"dagi ilk g'azal "Ashroqat min aksi" ning ma'rifiy ma'nolarini sharhlab berdi.(81) Bunday sharhlar birin-ketin bosilib chiqdi. Bu sohada Najmiddin Komilov , Rahim Vohidov, Hamid Ne'matov, Muhammad Ali, Nusratullo Jumayev, Sultonmurod Olimov, Shavkat Hayitov kabi tadqiqotchilarning hissalar ulkan bo'ldi (67;99;76;54). Shuning uchun biz maktab

o'quvchilariga ham Alisher Navoiyning o'z g'azallarida tarannum etgan botiniy ma'nolari haqida ma'lumot berishimiz zarur. Chunonchi, shu o'quv yilida O'zbekiston maktablaridan sinovdan o'tayotgan "5-sinf ona tii darsligi"da "So'zlarning zohiriy va botiniy ma'nolari" nomli matn bor. Bu matn mavzumizga bevosita aloqador bo'lganligi sababli matndan so'zlarning izohini keltirishni lozim topdik.

"Ramziy, botiniy ma'nolar qadimgi tilimizda islom dini kelishidan oldin ham mavjud bo'lgan. Qadimgi davrlarda "qora" so'zi "kuchli", "katta", "qattiq" ramziy ma'nolarida ishlatilgan. Biz hozir qoramol, qoraxoniylar, Qorabotir, qoravabo (chuma) so'zlarida xuddi shu ma'noga duch kelamiz.

"Oq" so'zi yorug'lik, baxt-saodat ramzi bo'lgan. "oq fotiha", "yo'lingiz oq bo'lsin" iboralarida xuddi shu ma'no mavjud. Bo'ri, bo'g'ra, arslon kabi jonivor nomlari kuchlilik, dadillik, qo'rqmaslik ramzi bo'lgan.

So'zlarning botiniy ma'nolari - tamoman boy xazina. Shuning uchun kelajakda maktabxonlarimiz Alisher Navoiy asarlarining nafaqat zohiriy, balki botiniy-ma'rifiy ma'nolari bilan ham uzluksiz tanishib boradilar."(88)

G'azaldagi so'zlarning hammasi ramziy ma'nolarga ega. Ulardan ayrimlarining ma'nolarini ko'rsatib o'tamiz.

Juda ko'p hollarda so'zlarning ramziy-botiniy ma'nosi so'z birikmasi yoki butun gap doirasidagina ayon bo'lganligi uchun bizning bu lug'atimiz ham so'z va so'z birikmalaridan iborat.

husnung zuhuri- borliq, dunyo; butun koinot va undagi bor narsa, go'zalliklarning barchasi Haqqi mutlaq sifatlarining tajallisi sifatida.

savdo tushmoq- Haq husniga maftun bo'lib, unga erishish yo'llarini izlamoq;

kavnayn bozori- hayot yo'li;

g'avgo- har kimning o'z tashvishi bilan bo'lishi. Boshqalarga e'tibor bermay, o'z yo'lidan borishi;

topmoq mushkul- Haqning moddiylikka ega emasligi sababli ko'zga ko'rinmasligi, Haq taolloning ko'z, quloq sezgi bilan topib bo'lmasligi;

topmaslig' oson- yuqoridagi birikmaning ma'nodoshi;

chaman otashgahi- koinot, borliq va uning narsalari;

otashin gul- borliqdagi go'zalliklar, haqning go'zalligi tajallisi;

bulbuli shaydo- tariqat ahli. Haqqa yetishishni istovchilar.

samandar- isman boru, jisman yo'q;

ko'zgu- Haq tajallisi, Haq sifatleri aksini ko'rsatuvchi vosita;

sun'ung bog'i- borliq, koinot va undagi yaratilish narsalar;

guli ra'no- koinotdagi go'zal narsalar;

jamoling partavi- Haq sifatlarining tajallisi;

qanoat- nafsni tiyish, o'zlikdan kechish;

Jannat guli- eng go'zal, abadiy narsa;

tikan- foni, tuban narsa;

G'azal hamd mazmuniga ega bo'lganligi uchun unda Haqqi mutlaqning sifat va qudrati yuqorida ko'rsatilgan ramziy ma'nolar orqali tarannum etiladi. Lekin g'azalning ma'rifiy mohiyati bu bilan cheklanmaydi. Ma'lumki, tariqat bu- Haqqa yetishish yo'li. Foni insonning abadiy Haqqa qarab me'roji – yuksalish yo'lidir. Juda ko'p tariqatlarda tariqatning maqomlari yettita:

- Talab;
- Ishq;

- Ma’rifat;
- Istig’no;
- Tavhid;
- Hayrat;
- Fano sifatida belgilanadi.

Farididdin Attor ham “Mantiq ut-tayr”da Haq me’roj bosqichlarini yuqoridagidek belgilaydi. Ma’lumki Alisher Navoiy yoshligidanoq “Mantiq ut-tayr”ga berilib, shunga monand asarni yaratishni umr bo’yi maqsadi deb bilgan. Bu haqda “Lisonut-tayr” da shunday yozadi:

Munchakim nazm ichra qildim ishtig’ol,

Xotirimdin chiqmas erdi bu hayol, —

Kim bu daftarga berib tavfiq haq,

Tarjuma rasmi bila yozsam varaq.**(62.108)**

Shuning uchun Navoiyning 1468-70-yillarda hali o’ttizga kirmagan paytda yaratgan “Badoyi’ ul bidoya” devonidan o’rin olgan bu g’azal buyuk mutafakkir fikrini to’la tasdiqlaydi.

Bu g’azaldagi 11 baytdan deyarli har birida tasavvufning, insoniy me’rojning bosqichiningo’ziga xos xususiyati va mavzusi Suyima G’aniyeva, Hamid Ne’matovlarning “Navoiy asarlarida tasavvuf ohanglari” maqolalarida berilgan va biz uni takrorlab o’tirmadik.**(121; 47)**

G’azalning birinchi bayti talab vodiysi mavzusida yozilgan. Unda haq go’zalligi va qudratining namoyon bo’lishi va inson ongini qamrab olishi, Haqqa ishtiyoqi haqida gap boradi.

G’azalning 2-3-baytlarida Haqqa yetishish oson emasligi, bu yo’lda chekish lozim bo’lgan qiyinchiliklar ya’ni ishq holati tasvirlanadi.

To'rtinchi bayt – ma'rifat vodiysi. Maqomi holatiga, gulday kamtarin va “arzimas” narsada Haq san'ati qudratining quyoshday ulkan va buyuk narsadan ko'ra ko'proq shaklda mujassamlanganligi tavsiflanadi.

5-8-baytlar Istig'no maqomi holatiga mansub bo'lib, Layli yuzida – Haq yuzi, Shirin labida – Haq kalomi, Uzro yuzida – Haq go'zalligini, sham o'tida Haqni ko'rish va shu cheklangan tajallilar vositasida Haqni topish majoziy va haqqoniy ishq orasidagi munosabatlarni to'g'ri tushunish va baholay olish, cheklanganlikda chekmaganlikni ko'ra olish, va shu bilan qanoat qilish holati tavsiflanadi.

9-bayt – Tavhid maqomi holatidir. ابىز ning o'zi ham go'zal qomat, ham zebdir. Go'zal qad ا (alif) بىز dan, بىز esa go'zal qad ا (alif) dan ayri-ayri emas.

10-bayt. Hayrat maqomida. Haqiqatan, qanoat عنة dan anqoni hosil qilish hayrotomuz narsa.

Oxirgi baytda foniylilik ramzi – tikan, abadiylik – boqiylik ramzi –jannat gulini bir-biriga solishtirib bo'lmasligiga bag'ishlangan.

G'azalning yuqorida berilgan ma'rifiy talqinidan ko'rinib turibdiki bu g'azal Mir Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonining **ixchamligini tezisidir**. Butun tasvvuf mohiyatini muallif shu g'azalda mujassamlashtira olgan. Zero, mumtozlar asarlarida tasavvufning mohiyatini ochib berishida ikki yo'ldan borganlar.

- Sof orifona. Ahmad Yassaviy, Sulayman Boqirg'oni...
- Badiiy – ma'rifiy. Sa'diy, Hofiz, Jomiy, Navoiy.

Biz tahlilini bergan g'azal ikkinchisiga mansub bo'lib, mazmun va mohiyat ramziy shakl va hodisalar bilan beriladi.

Ushbu baytda Ey, senga (Olloh) chiroyli so`z bilan hamd aytish qiyin, Balki senga yaqinlik toat ibodat bilandir. Degan mazmun mujassam. Ya`ni Ollohga yaqinlik qilish degani bu unga faqatgina chiroyli so`zlar aytish bilangina emas, balki shunga hamohang xudojo`ylik, ibodat bilan yaqinlashish mumkin.

Topmoq ajib fikru tahayyul bila seni,

Etmak mahol aqlu farosat bilan sanga

Matla`ning bevosita davomi hisoblangan ikkinchi baytda ham Oллоhning sifatleri sanashda davom etiladi. Uning bir-u borligiga ishoralar keltiriladi.

Seni ajoyib fikr-u hayollar bilan, aql-u farosat bilan ham topish qiyin. Ya`ni matla`dagi fikrlar bevosita ushbu baytda ham bevosita davom etilgan. Oллоhni topmoq uchun tom ma`noda solih banda bo`lmog` darkor. Oллоhni anglash uchun moddiy narsalarni anglash uchun kerak bo`lgan aql, mavhum narsalarni anglash uchun kerak bo`lgan hayol ham yordam berolmaydi, bunga faqat toat ibodat bilan yetishish mumkundir.

Ushbu baytimizda fikr, aql, tahayyul so`zlari orqali **tanosub** san`atining go`zal namunasi yuzaga kelgan.

Chun koyinot zubbasi ojiz ko`rub o`zin,

Hamd ayta olmas oncha balog`at bilan sanga.

Uchinchi baytimizda mubolag`a san`ati qo`llangan. Koinot sarasi shunchalik yetuk, barkamol, benuqson bo`la turib o`zini ojiz sanab senga hamd ayta olmadi. Yuqoridagi uch baytdan bizga shu ma`lum bo`ldiki, oллоhga yaqinlik uchun go`zal so`z ham, hayol ham, aql ham, yordam bera olmaganidek, yetuklik, barkamollik ham yordam bera olmaydi.

Izhori ajz bizdin adab tarkidur, base

Yuz ming qusuru

nuqsu kasofat bilan sanga.

To`rtinchi baytga kelib lirik qahraman Oллоh sifatlarini aytishdan biroz chekinib, o`z nuqsonlarini bayon qiladi. Ya`ni bizning senga yuz ming nuqson va qusurlar bilan ojizlik bayon qilishimiz bu bizning odobsizligimizdir. Ushbu baytga lirik qahramon kundalik hayotda kuzatiladigan hayotiy lavhalarga e`tiborimizni tortadi. Ya`ni ojiz bandalar Oллоhdan hech qachon madad so`rashdan to`xtamaydilar. Xoh ular gunohkor bo`lsin, xoh gunohsiz barchasi Oллоhga o`z arzlarini bir xilda bayon

qiladi. Ammo Olloh bilan tom ma`noda birlikni hosil qilmog` uchun har qanday, ma`naviy va axloqiy qusurlardan ( kamchiliklardan ) holi bo`lmog` darkor.

Har tiyra ro`zgorki, vaslingg`a yo`l topib
Sendin, etib charog`i hidoyat bilan sanga.

Beshinchi baytga kelib to`rtinchi baytdagi muammoli vaziyatga yechim topilganday bo`ladi. Har baxtiqaro sening vaslingga yaxshilik nuri bilan yetishadi. Bilamizki, buyuk Rabbimiz barcha gunohlarimizni kechirguvchi zotdir. Bilib - bilmay qilgan gunohlarimizni kechirilishi uchun esa, albatta, yaxshiliklar bilan ziynatlangan bo`lmog`imiz darkordir. Ushbu baytda tashbehsan`atidan foydalanilgan. Tiyra ro`zgor, charog`i hidoyat so`zlari bunga misoldir.

Lutfung rafiqim o`lmasa ne hadki etkam

Boshdin ayog` gunohu zalolat bilan sanga.

Oltinchi baytga kelib lirik qahramon yana Olloh sifatlarini madh etishga o`tadi. Ya`ni agar sening mehring menga do`st bo`lmasa, boshdan oyoq gunoh va gumrohlik bilan senga yetib bo`lmaydi deya ta`kidlaydi. Mazkur baytda Ollohning mehribon va kechiruvchanlik sifatiga alohida urg`u berilgan. Har qanday gunohkor va yo`ldan ozgan bandalar ham Olloh shafqati tufayli uning marhamatiga sazovor bo`lishiga ishora qilinmoqda. Baytda bosh va oyoq so`zlari orqali tazod san`ati yuzaga kelgan.

Lutf aylagilki mumkin emas qilmasang qabul,

Etmak tamomi umr ibodat bilan sanga.

Oltinchi baytning uzviy davomi bo`lmish yettinchi baytda lirik qahramon fikrlarini izchil tarzda rivojlantiradi, ya`ni agar lutf aylamasang, butun umr ibodat bilan ham senga yetib bo`lmaydi. Olloh lutf qilmasa inson butun umr toat ibodat qilsa ham bari bekor. Baytda inson umrining o`tkinchi va qisqaligiga ham ishora mavjud. G`azalning yakpora g`azal ekanligi so`ngi baytlarda yanada oydinlashadi. Chunki matla`dagi fikrlar mazkur bayt orqali

yanada to'ldirilgan. Har ikkala baytda ham Ollohga yetish yo'lidagi asosiy amal toat ibodat bilan pokiza ko'ngil, sof niyat va Olloh marhamati ham lozimligi ta'kidlangan.

Chun sendin o'zga yo'q panahim qochmayin netay

Jurmu gunahdin ohu nadomat bilan sanga.

Sakkizinchi baytimizga kelib lirik qahramon bevosita Ollohga munojoti bilan boshlanadi. Gunoh oh va nadomat bilan nima qilay sendan o'zga panohim yo'q qochmagin. Navoiy Ollohning bir-u borligini nafaqat nazmiy asarlarida balki nasriy asarlarida ham ta'kidlagan. Ushbu fikrimizning dalili sifatida “ Munojot “ asaridan olingan quyidagi parchani havola etamiz “ Ilohi, dardi holimni har kimga aytsan rad qilsa, sanga tavajjuh etkaymen va agar san rad qilsang netkaymen va kimga ketkaymen” . Yuqoridagi baytda va mazkur misoldagi umumiy mazmun shundaki, bandaning eng yaqin rafiqi Ollohdir. Mazkur baytimizda ham **tanosib** san'atini ko'rishimiz mumkin. Bular: jurm, gunoh, oh - nadomat

Isyoni ko'p Navoiyning yo'q uyotikim,

Istar etishsa muncha xijolat bilan sanga.

Maqta lirik qahramonning Ollohga murojati bilan boshlanadi. Aynan shu baytdan lirik qahramon Navoiyning o'zi ekani ayonlashadi. Navoiyning isyoni ko'p, uyati yo'q. U ko'p xijolarlar bilan bo'lsa ham Ollohga erishishni istaydi. Bu baytda ham hayotiy hodisaga duch kelamiz. Insonni qiyin vaziyatlarda yaqin kishilari ham tashlab ketishi mumkin. Lekin Olloh hech qachon yordamini darig' tutmaydi. Lirik qahramon (A. Navoiy) buni yaxshi tushungan holda tilak va istak mayllari haddan ortiqligidan xijolat tortadi. Ushbu mayllardan eng buyugi Ollohga yetishish. Hazrat Navoiy yuqoridagi bayon qilingan g'azalida Ollohning ko'pgina sifatlari: mehribonlik, qodirlik, kechiruvchanlik, rahmdillikni madh etadi. G'azal badiiy jihatdan ham g'oyatda e'tiborga sazovar . Tahlil davomida ushbu g'azalimizda juda ko'plab badiiy san'atlar, jumladan: tashbeh, tanosub, tazod, mubolag'alarning betakror va g'o'zal namunalarini uchratdik. Navoiyning boshqa

asarlari singari ushbu g`azal ham asrlar silsilasidan o`tib, o`z qiymatini shu kungacha yo`qotmasdan kelmoqda. Asar bugungi kunda ham komil insonni tarbiyalashda nimalarga e`tibor qaratish kerak degan savolga to`liq javob bera oladi.

Hazrat Navoiy matla`dayoq o`zining buyuk so`z san`atkori va din bilimdoni ekanligini namoyon qilganlar. Ya`ni Ollohning go`zal sifatlarini sanash orqali tanosub san`atini yuzaga keltirganlar. Ushbu baytda Navoiy Ollohga Iloh, podshoh, kirdigoro deb murojaat qiladi. Olloh senga ochiq va yashirin ( barcha narsalar) oshkor. Mazkur misralar orqali Navoiy Ollohning bilguvchilik sifatiga ishora qilganlar. Olloh har bir insonning o`zida ekan bizning har bir qilayotgan ishimiz uning nigohida. Uning nazaridan qochib hech qayerga borib bo`lmaydi. U na zamon, na makon tanlaydi. Matla`dayoq o`quvchiga har bir qilayotgan amali Olloh nazarida ekanligi ochiq va ravshan bayon qilingan. Baytda tazod san`atini ochiq va yashirin so`zlari yuzaga keltirgan.

Sabur ismi bila qilsang tajalliy,
Qilib Namrudg'a yuz ming mudoro.

Matla`ning bevosita davomi sifatida ikkinchi baytda ham Olloh sifatlarini sanashda davom etiladi. Ollohning 99 ismidan biri Sabur dir. Uning ma`nosi sabrli, chidamli degani. Baytda keltirilgan Namrud talmehi o`quvchi e`tiborini tortishi tayin. Qator lug`at va izohlarda quyidagicha izohlangan. Namrud – Ibrohim payg`ambarni o`tga tashlagan afsonaviy podsho. Qator hadislarida ham musulmonlarga qarata sabrli bo`lish, o`z nafsini jilovlash, xususida so`z boradi. Mazkur baytda ham shunga hamohang fikrlar mavjud.

Namrudga yuz ming iltifot qilib, Sabur isming bilan ko`rinish qil. Ya`ni o`z nafi yo`lida yo`ldan adashgan g`ofil bandalaringni sabrga chorla. Namrud obrazi bu yerda g`ofil bandalarning umumlashma obrazidir. Sabrli inson hech qachon to`g`ri yo`ldan adashmaydi. Nafsi ham aynan sabr orqali yengish mumkin. Buni yaxshi anglagan Navoiy o`zining qator nasriy va nazmiy asarlarida bunga alohida

to'xtalib o'tgan. Bu fikr tadrijiy tarzda rivojlantirilgan asar sifatida "Lison ut – tayr"ni ko'rsatishimiz mumkin. Asardagi qushlar sabr orqali nafslarini yengib, semurg'ni angladilar.

Qachonkim zohir etsang «tanzi'-ul-mulk»,
bo'lub mag'lubi Doro.

Sikandarning

Mazkur bayt mazmuni talmeh san'ati orqali ochib berilgan. Mazkur takmehlar orqali tarixiy voqea o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi. Ollohning qudrati orqali xalq, zolim shohdan qutulib, ma'rifatli, odil, xalqparvar shoh qo'l ostiga o'tadi. Navoiyning boshqa asarlarida ham Iskandar odil shoh sifatida namoyon bo'ladi. Baytda Iskandarning Doro ustidan g'alaba qozonganligi ham Tangri inoyati ekanligi aytilgan. Baytdan chiqadigan xulosa shuki, dunyoda bo'ladigan har qanday yaxshi amallar yaratgan egam inoyati, yomon kunlar esa inson irodasini sunash uchun yuborilgan sinovdir. Shunday ekan yaxshi va yomonkunlarga birday shukrona aytmog' zarur.

Yo'lung muhlik toshi yoquti ahmar,
Eshiging tiyra gardi mushki soro

To'rtinchi bayt badiiy jihatdan yetukligi bilan ajralib turadi. Baytda tashbehdan ustalik bilan foydalangan. Muhlik tosh, yoqut ahbar, tiyra gard, mushki soro kabilar tashbehni yuzaga keltirgan. Baytda Olloh yo'lida chekilgan dard- u zahmat buyuk ne'mat deb atalgan. Yo'lingning jon oluvchi toshi qizil yoqut, eshigingning qora tuprog'I mushk anbar kabidir. Ya'ni bu yo'lda jon berish ham muborakdur. Bu yo'lning qora tuprog'I lirik qahramon uchun mushk - anbar kabi yoqimli. Ollohga erishish katta qiyinchiliklarni talab etadi. Navoiy mazkur bayt orqali bu yo'lga kirgan solik bandaga madad berib bu yo'lda sobit borishga undagan. Bu baytlarni o'qigan kitobxon Navoiyning badiiy mahoratiga yana bir marotaba tan beradi.

Suho bo'lsa shabistoningda toli',

Bo'lub nuri quyoshdek olamoro.

Lirik qahramon beshinchi bayt Ollohning mo`jizalariga yana bir marta imon keltiradi. Baytda qo`llangan suho (xira yulduz) quyosh bilan zid qo`yilgan, bir qaraganda ular o`rtasida mutanosiblik yo`qday. Lekin Buyuk Rabbimiz har narsaga qodir. Hattoki xira yulduzni ham quyoshdek porloq qilishga ham qodir. Baytda qo`llangan shabiston (qorong`u tun ) insonning hayot yo`li ramzi. Ollohim har bir bandasini baxtli qilish shabistonini quyosh nurlari bilan yoritish qudratiga egadir. Shunday ekan nega barcha birday baxtli emas? degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Inson dunyoga kelganda Ollohning suyukli bandasi sanaladi. Umri oxirigacha shu maqomni saqlab qolish har kimning o`z qo`lida. Olloh ko`rsatgan barcha farz-u amallarga rioya qilgan bandaning yo`larini doimo Rabbim o`zi yoritgaydir.

Mazkur baytda aynan shu xulosalarga ishora qilingan. Bundan tashqari baytda tazod san`atini ham ko`rishimiz mumkin.

Navoiy nafs zulmotig`a qolmish,

Sen o`lmay Xizri rah chiqmoq ne, yoro?!

Navoiy nafs zulmatida qoldi, sen bo`lmasang Xizrga yo`liqmoqdan nima foyda? Baytdagi Xizr talmehi tahlilta`labdir. Xizr – afsonalarga ko`ra “ obi – hayot ” (tiriklik suvi) ni izlab topgan va undan ichib doimiy barhayot payg`ambar nomi. Kishilarga yo`liqishi bilan mashhur. Xizr payg`amparga yo`liqqan har bir kishining niyatlari o`z ijobatini topadi. Baytdagi Navoiy butun xalq obrazi. Ya`ni lirik qahramon ommaga qarata nafs zulmatida Xizr kabi uzoq umr ko`rishdan ne foyda, deydi. Nafs changaliga tushgan insonning qalbida Olloh yashamas ekan Xizr payg`ambar singari qanchalik uzoq yashamasin, baribir ham uning hayoti zulmatda qoladi. Bu bayt bugungi kunda ham dolzarbligi bilan ajralib turadi. Kundalik turmushimizda uchratadigan ba`zi bir kimsalar mol-u dunyo tashvishida kecha-yu kunduz yelib yugurishadi, ammo ularga berilgan umr juda qisqa ekanligini unutishadi. Odam Ato va Momo Havoning qismati bizga o`rnak emasmi? Ular jannatda Olloh rafiqi edilar. Nafs qutqusiga uchib, jannatdan yerga quvildilar. Ammo Olloh kechiruvchidir, ularga o`z uylariga qaytish imkonini ham berdi. Bu

yo`ldagi ilk qadam nafa tarbiyasidir. Biz ularning avlodi sifatida bu foniy dunyoda qilgan yaxshi amallarimiz bilan, boqiy dunyoda Rabbimiz jannatdan bir ko`shk xozirlaydi. Mazkur bayt solik bandalarni ogohlantiruvchi chaqiriq sifatida yangraydi.

Qiyomatda gunohin afv etarga

Rasulingni shafi' et, kirdgoro

Maqta bevosita Ollohg murojaat bilan boshlanadi. Ollohim, qiyomat kuni gunohlarni avf etishga Payg`ambaringni himoyachi et. Baytdagi qiyomat so`zi o`quvchiga tushunarsiz tuyilish mumkin. “Navoiy asarlari lug`atida” u quyidagicha sharhlanadi. Qiyomat – 1. mifga ko`ra insonlar ning qayta tirilish kuni 2. Qo`zg`alon, g`avg`o, to`palon.**(79,335)**

Diniy kitoblarda bu kun Olloh o`zining Qahhor ( qahrli) sifatini namoyon qiladi. Barcha o`lganlar tirilib, bu dunyoda qilgan amallari yuzasidan savol – javob qilinadi. Shunda gunohkor bandalar va Olloh orasida vositachi, gunohkorlar himoyachisi Payg`ambarimiz hisoblanadi. Birgina Payg`ambarimiz Ollohdan bandalar gunohidan o`tishni so`raydi. Payg`ambarga berilgan “shafi ul-muzannibin” sifati ham aynan shunga ishoradir. Yuqoridagi fikrlarimizga hamohang tarzda shuni ham ta`kidlab o`tmoqchimizki, Nosiruddin Rabg`uziyning “Qissas ul-Rabg`uziy” asaridagi quyidagi misolni keltirmoqchimiz. Azroil alayhissalom Payg`ambarimiz jonlarini olishga kelganda, jonlari bo`g`zlariga yetganda shunday deydilar: “Ey Azroyil, bu kundan qiyomatga tegi maning ummatlarimga jon bermak, qattig`liqi bor ersa ul qattig`liqlarni manga yuklagil. Ul qattig`liqlar manga bo`lsun. Ummatlarimqa bo`lmasin”.

Tahlil davomida shunga amin bo`ldikki, bu g`azal Navoiyning boshqa hamd g`azallaridan badiiy va g`oyaviy jihatdan yetukligi bilan ajralib turadi. Asar misralaridagi har bir fikr bugungi kun uchun ham dolzarb sanaladi. Navoiyning bashqa asarlari singari ushbu g`azal ham makon va zamon tanlamaydigan tuyg`ular madhiga bag`ishlangan. Navoiy asarlarining yashovchanlik xususiyatlari ham

aynan ana shundadir. Gʻazalning boshqa gʻazallardan yana bir farqi shundaki, taxallus maqtada emas undan oldingi baytda qoʻllangan.

Xulosa

Har bir asar shu muallif dunyoqarashi mohiyatining inʼikosi sifatida qaralib, adibning oʻnlab jihatlari dunyoqarashi, til xususiyatlari, tildan foydalana olish sanʼati, badiiy mahorati, timsollar tizimi kabilar birgalikda tahlil etilishi lozim. Shundagina asarning filologik mohiyati ochib berilishi mumkin. Alisher Navoiy badiiy sanʼatlarni namoyish qilishda leksik imkoniyatlardan oʻta unumli foydalanadi. Shariat va tariqatning komil jamiyat qurish hamda komil inson tarbiyasi uchun bir-birini taqozo etadigan tadrijiy, uzviy, uzluksiz bosqichli mantiqiy jarayondan iborat ekanligini asoslab borish, ulugʻ shoir hamd gʻazallarini birlashtirib turuvchi umumiy gʻoyadir. Shuning uchun biz maktab oʻquvchilariga ham Alisher Navoiyning oʻz gʻazallarida tarannum etgan botiniy maʼnolari haqida maʼlumot berishimiz zarur. Gʻazallar eski oʻzbek tilining buyuk sanʼatkori boʻlgan Alisher Navoiy qalamiga mansub boʻlganligi sababli bu gʻazallarda eski oʻzbek tili uchun xos boʻlgan eng xarakterli fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini koʻrish mumkin. Bunday oʻziga xosliklarni birma-bir yuqorida koʻrib oʻtdik. Alisher Navoiy eski oʻzbek tilining fonetik imkoniyatlarini chuqur bilgan. Oʻzining “Muhokamat ul-lugʻotayn” asarida ham buyuk mutafakkir eski oʻzbek tilining fonetik xususiyatlari borasida toʻxtalib, sheʼr tuzish va qofiyalashdagi qulayliklarni eʼtirof etib, tildagi unlilarning choʻziq va qisqaligi aruz vazni talablariga juda mos kelishini taʼkidlaydi. Buyuk bobokalonlarimiz

Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi o'zbek; Hofiz, Sa'diy, Jomiy kabi tojik adabiyoti namoyondalari o'z g'azal va dostonlarida so'zning zohiriy, ya'ni ko'zga ko'rinadigan, oddiy, sodda ma'nolari bilan bir qatorda ramziy ishorali ma'nolaridan ham foydalanganlar. Ularning asarlarida uchraydigan yor, mahbuba, suyakli, oshiq, gul, bulbul, tikan, soqiy, rind, sharob, may, mayxona kabi ko'pgina so'zlarda islom dini va tasavvuf falsafasi asosida boshqa xil – botiniy-ramziy ma'nolari Haqqi mutlaq, yagona va yakka Ollohga ishora qilish, vojibul-vujud, ya'ni borliqni yaratish sababchisining sifatlarini ramziy misollar vositasida ifodalashga xizmat qilgan. Bunday so'zlarning ma'nolarini esa, faqat ma'rifatli kishilargina chaqa oladi.

So'zlarning botiniy ma'nolari - tamoman boy xazina. Shuning uchun kelajakda kitobxonlarimiz Alisher Navoiy asarlarining nafaqat zohiriy, balki botiniy-ma'rifiy ma'nolari bilan ham uzluksiz tanishib boradilar. Demak, buyuk mutafakkirning o'z so'zlariga ko'ra ilk g'azallarning hamd yoki na't mazmuniga ega bo'lishligi talabiga ko'ra bu g'azal ham hamd yoki na't mazmuniga ega bo'lmog'i kerak. Haqiqatan ham, g'azal hamd mazmuniga ega bo'lib, unda bevosita Haqqa murojaat qilinib, uning qudrat va sifatleri tarannum etilgan. G'azallardagi so'zlarning hammasi ramziy ma'nolarga ega. Ulardan ayrimlarining ma'nolarini ko'rsatib o'tdik. Juda ko'p hollarda so'zlarning ramziy-botiniy ma'nosi so'z birikmasi yoki butun gap doirasidagina ayon bo'lganligi uchun bizning bu lug'atimiz ham so'z va so'z birikmalaridan iborat.

G'azallar hamd mazmuniga ega bo'lganligi uchun unda Haqqi mutlaqning sifat va qudrati yuqorida ko'rsatilgan ramziy ma'nolar orqali tarannum etiladi. Lekin g'azallarning ma'rifiy mohiyati bu bilan cheklanmaydi. Ma'lumki, tariqat bu-Haqqga yetishish yo'li. Foni insonning abadiy Haqqga qarab me'roji – yuksalish yo'lidir. Lirik qahramon holati mubolag'a san'ati orqali yorqin aks etgan Tahlil qilinayotgan g'azalda ham xuddi shu g'oya ifodalanib, u yaratish san'ati va yaralish sabablari talqiniga bag'ishlangan. Mazkur g'azallar hamd mazmuniga ega bo'lganligi uchun unda Ollohning sifat qudrati ramziy ma'nolar orqali ifodalangan.

Gʻazallarning birinchi baytida Haq goʻzalligi-yu qudratining namoyon boʻlishi va inson ongini qamrab olishi, uning Haqqa ishtiyoqi haqida soʻz boradi. Chunki Alloh Oʻzining ism va sifatleri bilan barcha ashyolarda tajalliy aylaydi. Umuman olganda, Alisher Navoiy ushbu gʻazallari bilan soʻzdan unumli foydalanishning yuksak mahoratini namoyish eta olgan. Alisher Navoiyning bu gʻazallari mukammal bir badiiy asar boʻlib, unda Navoiy davri tili, mafkurasi, badiiy ijod xususiyatlarining muhim tomonlari oʻz aksini topgan. Shuning uchun Alisher Navoiy asarlarini oliy va oʻrta maktabda oʻrganar ekanmiz, yo til, yo adabiyot, yo mazmun, yo shakl jihatlari bilan chegaranmaslik lozimdir. Asarni qanchalik chuqur oʻrgansak, shunchalik Hazrat Alisher Navoiy ijoding sirlar xazinasidan bahramand boʻlib boraveramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

I Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: «Маънавият», 2008. 176 б.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni.-T.: “Adolat”, 2017. -25-b.
3. Ш.Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (“Халқ сўзи”, 2017 йил, 8 феврал).
5. Ш.Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

II Asosiy adabiyotlar

1. Ilmiy va badiiy adabiyotlar:

6. АлишерНавоийнинг адабий маҳорат масалалари (мақолалар тўплами)- Тошкент: Фан; 1993. 208 б.

7. Адабий мероси Хужжат ва тадқиқотлар. Тошкент: Фан, 1968, 300 б.
8. Азизиддин Насафий. Зубдатул-хақойиқ. - Тошкент: Камалак, 1996, 47 б.
9. Алишер Навоий. Ғазаллар, шарҳлар. - Тошкент: Камалак, 1991, 176 б.
10. Аттор Фаридуддин. Мантиқ ут-тайр. - Тошкент, 1900, **26 июнь?????**
11. Атоулло Ҳусайни. Бадоеъ-ус-саноеъ. - Душанбе: Ирфон, 1973, 398 с.
12. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. - Москва: Наука, 1965.
13. Бекова Н. Навоий шеъритада ҳамд поэтикаси. - Тошкент: Фан, 2007, 204б.
14. Брагинский И.С. Из истории таджикской и персидской литературы. - Москва: Наука, 1972, 524 с.
15. Валихўжаев Б. Арабин ҳадис ва унинг таржималари. //Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари (мақолалар тўплами). -Тошкент: Фан, 1993, 126-135-бетлар.
16. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. - Тошкент: Ўзбекистон, 1993, 192 б.
17. Воҳидов Р. Алишер Навоийнинг ижод мактаби. -Бухоро: Бухоро, 1994, 187 б.
18. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. -Бухоро: Бухоро нашриёти, 1994, 208 б.
19. Воҳидов Р., Маҳмудов М. Маънавият - қомиллик саодати. - Тошкент: Маънавият, 1997, 192 б.
20. Воҳидов Р., Маҳмудов М. Иймон - қалб гавҳари. Адабий фалсафий ўйлар. -Тошкент: Маънавият, 1999, 200 б.
21. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Мумтоз адабиёт - ҳикмат хазинаси. - Бухоро: Бухоро, 2001, 154 б.
22. Воҳидов Р., Неъматов Ҳ., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. - Тошкент: Ёзувчи, 2001, 144 б.
23. Жумаев Н. Поэтлик тасвирда пейзажнинг роли. -Тошкент: Ўзбекистон, 1982, 24 б.
24. Жумаев Н. Ғазалда ғоя ва бадиий маҳорат мутаносиблиги. //Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари (мақолалар тўплами). -Тошкент: Фан, 1993, 51-67-б.
25. Жирмунский В. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. - Ленинград: Наука, 1972, 407 с.

26. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. -Тошкент: Фан, 1983, 167 с.
27. Комилов Н. Тасаввуф. I китоб. -Тошкент: Ёзувчи, 1996, 272б.
28. Комилов Н. Тасаввуф. II китоб. -Тошкент: "Адабиёт ва санъат" ҳамда "Ўзбекистон", 1999. 204 б.
29. Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб. -Тошкент: Маънавият, 2001. 94 б.
30. Кошифий Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. Форс-тожик тилидан Н.Комилов таржимаси. -Тошкент: Халқ мероси, 1994, 112 б.
31. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. Биринчи китоб. -Тошкент: Ўқитувчи, 1976, 663 б.
32. Маллаев Н. Асрлар эътирофи ва таъзими. -Тошкент: Фан, 1978, 64 б.
33. Навоий Алишер. Лисон ут-тайр. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991, 464 б.
34. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 1-том. Бадоеъ ул-бидоя. -Тошкент: Фан, 1987, 620 б.
35. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 13-том. Мажолис ун-нафоис. -Тошкент: Фан, 1997, 283 б.
36. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 3-том. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб-ус-сиғар. -Тошкент: Фан, 1988, 616 б.
37. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 4-том. Наводир уш-шабоб. -Тошкент: Фан, 1989, 560 б.
38. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 5-том. Бадоеъ ул-васат. -Тошкент: Фан, 1990, 544 б.
39. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 6-том. Фавойид ул-кибар. -Тошкент: Фан, 1990, 568 б.
40. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 7-том. Хамса. Ҳайрат ул-аброр -Тошкент: Фан, 1991, 392 б.
41. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 18-том. Девони Фоний. -Тошкент: Фан, 2002, 550 б.
42. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 17-том. - Тошкент: Фан, 2001,

43. Навоий Алишер. Рух ул-қудс. Сўзбоши, насрий баён, изох ва луғат билан нашрга тайёрловчилар проф. Р.Воҳидов, тадқиқотчи Н.Бекова. - Тошкент: Ўзбекистон, 2002, 35 б.
44. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972, 784 б.
45. Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат (Атойининг поэтик маҳорати). -Тошкент: Фан, 1995, 154 б.
46. SaylijevaZ.R.Alisher Navoiy g'azallarida talmeh san'ati. ("Filologiya masalalari (Hayrat va talqin)" to'plami)-Тошкент: Наврўз, 2017,127-б
47. SaylijevaZ.R.Alisher Navoiyning hamd va na't g'azallarida tanosib san'ati ("Filologiya masalalari (Hayrat va talqin)" to'plami)-Тошкент: Наврўз, 2017,131-б
- 48.SaylijevaZ.R. Birg'azalsharhi.- -Тошкент: Наврўз, 2017, 40 b
49. Тарозий Шайх Аҳмад Ибн Худойдод. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. -Тошкент: Хазиана, 1996,
50. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. -Тошкент: Истиқлол, 1999, 180 б.
51. Шайхзода М. Асарлар. 6 томлик. IV том. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972, 372 б.
52. Шамс Қайс Розий. Ал-мўъжам. -Душанбе: Адиб, 1991, 464 с.
53. Қаюмов А. Алишер Навоий. -Тошкент: Камалак, 1991, 176 б.
54. Қосимов М. Илоҳий саналар//Тафаккур, 1998, 1-сон, 84-87-б.
55. Ал – Қуръонул Карим. Мадинаи Мунаввара: Мужаммаъ ал-малий Фаҳд ли тибоати мусҳафи шариф, 1985, 604 б.
56. Қуръони карим (таржима ва изохлар муаллифи Алоуддин Мансур). - Тошкент: Чўлпон, 1992. 672 б.
57. Ғаффорова Зиёда. Навоийнинг ҳамд ва наът ғазаллари. -Тошкент: Маънавият, 2001, 62 б.
58. Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1970, 173 б.
59. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. -Тошкент: Фан, 1970. 330 б.
60. Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари, -Тошкент: Ўқитувчи, 1997, 238 б.

61. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. -Тошкент: Ёзувчи, 1993, 215 б.
62. Ҳайитметов А. Алишер Навоий ижодининг манбалари ҳақида// Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари (мақолалар тўплами). - Тошкент: Фан, 1993, 3-13-б.
63. Ҳайитов Ш. "Маҳбуб ул-қулуб"да тасаввуфий жилोलар. -Тошкент: Фан, 1996, 48 б.
64. Ҳаққул И. Шеърят - руҳий муносабат. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989, 240 б.
65. Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. -Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, 184 б.
66. Ҳаққул И. Ғазал гулшани (адабий суҳбатлар). -Тошкент: Фан, 1991, 70 б.
67. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. -Тошкент: Шарқ, 1998, 230 б.
68. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. Тошкент: «Фан», 2007. 222 б.

2.Мақолалар

- 69.Болтаев М.Н. Имом Ғаззолийнинг ирфоний таълимоти // Бухоро университети илмий ахборотлари. - Бухоро давлат университети, 2002, №2, 2-7-бетлар.
- 70.Воҳидов Р. "Ситтаи зарурияда татаббуъ". // Бухоро университети илмий ахборотлари. 2001, №1, 10-18-бетлар.
- 71.Исҳоқов Ё. Навоий лирикасида руҳий тасвир ва таҳлил. //"Ўзбек тили ва адабиёти", 1991, 4-сон, 15-20-б.
- 72.Комилов Н. Ҳар байти ҳикматли бир китоб// Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2001, 9 февраль.
- 73.Рустамов А. Шоирнинг биринчи ғазали.//Шарқ юлдузи, 1987, № 3, 175-179-б.
- 74.Ҳайитметов А. Исломий эътиқод ва буюк ижод маҳсули// Имом ал-Бухорий, № 1, 2001, 41-43-б.

3. Dissertatsiya va avtoreferatlar

75. Абдуқодиров А. Тасаввуф ва Алишер Навоий ижоди (вахдат ул-вужуд проблемаси бўйича) Филол.фанлари доктори... дис.-Тошкент, 1998.
76. Воҳидов Р.Ж. Взаимосвязь узбекской и персидско-таджикской литератур во второй половине XV начале XVI в. Дис. д-ра филол. наук. - Ташкент, 1988, 280 стр.
77. Davlatov O. Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarning badiiy talqini : falsafa fan.d-ri dis. – Samarqand, 2017.
78. Комилов Н. Шоир ва таржимон Муҳаммад Ризо Огаҳийнинг бадий маҳорати: Филол. фанлари номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1970. – 24 б.
79. Салоҳий Д. Алишер Навоий поэтик услубининг тажрижий тақомили.// Филол. фан.док. дис. -Тошкент, 2001.
80. Эшонқулов Ҳ. Алишер Навоий шеърятда самовий тимсоллар // Филол.фан.ном.дис... автореф. Самарқанд, 1999, 25 б.
81. Ҳаққул И. Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва тараққиёти// Филол.фан.док...дис. -Тошкент, 1995.

4. Lug'at va ensiklopediyalar:

82. Қуръони карим сўзларининг арабча-ўзбекча кўрсаткичли луғати. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. 277 б.
83. Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғат. Хилди 2. -Душанбе: Адиб, 1988, 261 с.
84. Фарҳанги форсӣ. Хилди II. -Техрон, 1996.
85. Фарҳанги забони тоҷикӣ. Жилди I. -Москва: Советская энциклопедия, 1969, 862 с.
86. Фарҳанги забони тоҷикӣ. Жилди II. -Москва: Советская энциклопедия, 1968, 867 с.

III. Internet saytlari:

87. www.ref.uz.
88. www.ziyouz.com.
89. www.literature.uz.
90. www.ziyouz.com
91. <http://www.referat.uz/>

92.<http://www.ziynet.uz/>

93.Scopus.com

94.Sincedirect.com

MUNDARIJA

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.....

**I Bob. MATN BILAN ISHLASH
TEKNOLOGIYALARIDANFOYDALANISHNING NAZARIY
MASALALARI.....**

I.1. Matn bilan ishlash texnologiyalari haqida.....

I.2 Gʻazallarning arab va lotincha yozuvidagi matni.....

**II Bob “GʻAROYIB US-SIGʻAR” DEVONIDAGI DASTLABKI 5
GʻAZALNING UMUMIY TAVSIFI.**

II.1. Vazn va ruknlarga ajratib berilgan matni.....

II.2. Gʻazallarning zohiriy maʼnosi.....

**III Bob. GʻAZALLARNING LISONIY TAHLILI. (“ GʻAROYIB US-
SIGʻAR” DEVONIDAGI DASTLABKI 5 GʻAZAL)**

III.1 Gʻazallar asosida eski oʻzbek tilining fonetik xususiyatlari.....

III.2 Gʻazallar asosida eski oʻzbek tilining morfologik xususiyatlari.....

III.3 Gʻazallar asosida eski oʻzbek tilining leksik vasintaktik xususiyatlari.....

IV Bob. G'AZALLARDA BOTINIY MA'NOLAR TIZIMI VA SO'ZLARNING RAMZIY-MA'RIFIY MA'NOLARI

IV.1 G'azallarda botiniy ma'nolar tizimi.....

IV.2 G'azallarda so'zlarning ramziy-ma'rifiy ma'nolari.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....